

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

SA'DIYNING "GULISTON" ASARIDA BARKAMOL SHAXS TARBIYASI
MASALASI
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Pedagogika psixologiya
ta'lim yo'nalishi talabasi
Ro'ziboyeva Hurmatoy Boboxon
qizi
Ilmiy rahbar:
O'.U.Qurbonova

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2017yil

Buxoro 2017

**Mavzu: SA'DIYNING "GULISTON" ASARIDA BARKAMOL SHAXS
TARBIYASI MASALASI**

KIRISH.....

**1-BOB. SHARQ PEDAGOGIK TA'LIMOTIDA TA'LIMiy-AXLOQiy
QARASHLAR.**

1.1 Sharq ma'naviy-ma'rifiy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyati.....

1.2 Sa'diyning hayoti va faoliyati.....

2.BOB SA'DIY TA'LIMOTINING MA'NAViy-MA'RIFIY ASOSLARI.

2.1. Sa'diy asarlarining ta'lim-tarbiyaviy mazmuni.....

2.1 "Guliston" da ifodalangan ta'limiy-axloqiy qarashlar mazmunida barkamol shaxs tarbiyasi va ularning yoshlar kamolotidagi ahamiyati.....

3.XULOSA.....

4.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

5.ILOVALAR.....



Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheroziy
(ابومجد مُصلِح الدین بن عَبْدُالله سعدی شیرازی)

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi :

O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlashda iqtisodiy, fan-texnika, xo'jalik, siyosiy, madaniy, mudofaa kabi jabhalar nihoyatda muhim o'rin tutganidek, ma'naviy, mafkuraviy faktorlar ham cheksiz ahamiyatga ega. O'zbekiston Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, "ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir". Binobarin, ma'naviy madaniyat qancha yuksak bo'lsa, jamiyat shuncha tez sur'atlarda mustahkamlanib boradi, natijada boshqa ijtimoiy muammolarni, jumladan o'quvchi – yoshlar ongiga milliy ma'naviy, mafkuraviy tamoyillarni singdirish jarayoni faollashadi.

Ma'naviyat va milliy istiqlol mafkurasi o'zida muhim umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan ulkan institutlardir. Milliy istiqlol mafkurasi - ma'naviy infrainstitutlar asosida shakllanadi. Bizning hozirgi milliy istiqlol g'oyamiz va mafkuramiz ham o'zining ma'naviy tarixiy ildizlariga ega. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy ahamiyati haqida gapirib, "Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba – bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi..." deb ta'kidlagan edilar. Shu ilmiy haqiqatga asoslansak, ma'naviyat jamiyatning, shaxsning ijtimoiy, siyosiy, ruhiy, axloqiy faolligini, tafakkur darajasini bildiradigan mezon bo'lsa, milliy istiqlol mafkurasi esa xalqimizning, jamiyatning, davlatning maqsad – vazifalarini, talab-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar infrastrukturasidir. Ma'naviyatning ham, milliy istiqlol mafkurasining ham ob'ekti bitta, u ham bo'lsa shaxsdir.

Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov xalqimizni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalash haqida quyidagi fikrlarni bildirdilar: «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish - O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday bir qimmatbaho ne'matki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan.

Erkin fuqaro ongli yashaydigan mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini shakllantirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur.»

har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqlir.

Binobarin mustiqillik tufayli ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayti tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi.

O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug' ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o'zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelagligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy – nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir.

Axloqan pok va etuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvafaqiyatli hal etishda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy me'roslari va tarixiy – tarbiyaviy tajribalarini o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta'lim – tarbiya ishlariga tadbiq etishning ahamiyati kattadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti A.I.Karimovning qo'yidagi so'zlari alohida e'tiborga loyiqdir.

«Naslu nasabini bilmagan kishi inson sanalmaydi. Necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar. Ammo biz hurriyatni orzu etishdan, hurriyat uchun kurishishdan charchamadik. Maslagimizni naslu nasabamizni doimo yodda saqladik.

Ulug' bobokalonlarimiz ruhiga, bashariyat tarixi va madaniyati xazinasiga

katta xissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizga, ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo'lish istagi jamiyatimiz a'zolari orasida keng yoyilishi, har bir fuqaroning ongidan mustahkam joy olishi – bu ham yangi zamonning muhim xususiyatidir».

Istiqloлга erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Ovrupa pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasini o'rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hur fikrlilik bizdan boshlangan. «Sharq Evropaning muallimidir» deganda haq edi Olmon olimi Xerler. Haqiqatan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz.

Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat va ma'rifat Sharqdan Evropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimga manbalarda «Avesto», Sug'd, Baqtriya, Urxun – Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi.

I.A.Karimov madaniy qadriyatlarning qudrati va tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho berib:

«Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. .

Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan-yangi avlodni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim», - deydi. Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Chunki biror millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ajratib olib yarata olmaydi. har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos

tomonlar bo'lsa ham, u umuminsoniy qadriyatlarning bir qismidir. Shu bilan birga unutmashimiz kerakki, biz qurayotgan yangi jamiyat «binosi» uchun birinchi galda milliy qadriyatlar ustun bo'lmog'i lozim. Biz, eng avvalo, milliy o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifadir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Muslihiddin Sa'diyning “Guliston” asaridagi ta'limiy-axloqiy qarashlar mazmunini o'rganish va ularni hozirgi zamon barkamol avlod arbiyasi jarayoniga qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari: mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlili asosida

- Sa'diyning hayoti va ijodiy faoliyati yo'lini o'rganish;
- Sa'diy ta'limotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini yoritish;
- Sa'diy asarlarining ta'lim-tarbiyaviy mazmunini aniqlash;
- “Guliston” da ifodalangan ta'limiy-axloqiy qarashlar va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatish.

1-BOB. SHARQ PEDAGOGIK TA'LIMOTIDA TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR.

1.1 SHARQ MA'NAVIY-MA'RIFIY MEROSI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo'lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi etakchi g'oya bo'lgan. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o'zagi sanalgan. Bu g'oyani, ya'ni insonparvarlik g'oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar

va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta'lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo'yilgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiy-axloqiy yo'nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi. Ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. «Qutadg'u bilig», «Axloqi Nosiriy», «Qobusnoma», «hibbat ul-haqoyiq», «Guliston», «Bo'ston», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Mahbub ul-qulub» kabi Yusuf Xos hojib, Nasiriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, jaloliddin Davoniy, husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta'kidlaganimiz inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta'limiy-axloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga etishida yuksak axloqqa ega bo'lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surildi.

Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish «Qur'on» va «hadis»larni o'rganish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirib olib bilan birga olib borilgan. Shunga ko'ra, «Qur'on» va «hadis»lardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta'sir etgan. hadislarning ta'siriga sabab umuminsoniy fazilatlariga alohida urg'u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim xislatlari: halollik, saxovat, himmat, mehru-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etgan. Ta'limiy-axloqiy asarlar bevosita hadislarda ilgari surilgan g'oyalar asosida yaratildi. hadislar ta'siri Yusuf Xos hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «hibbat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko'rinadi. ham g'oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir.

Masalan «Qur'on»da ham, «hadis»larda ham, ta'limiy-axloqiy dostonlarda

ham ilm ta’rifi bilan birga, xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Xullas, Sharq ta’lim-tarbiyasida ilmni targ’ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy tamoyillarga asoslangan, ta’limiy-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o’xshashligi ular tayangan ma’naviy zaminga bog’liqdir.

1.2 SA’DIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Muslihiddin Sa’diy Sharq mumtoz madaniyatining yirik namoyandalaridan biri bo’lib, uning nomi butun dunyoga mashhur.

Bu buyuk allomaning to’liq ismi Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (**ابومحمد مُصْلِحُ الدِّينِ بْنِ عَبْدِ اللَّهِ سَعْدِي شِيرَازِي**) bo’lib, Sharq va G’arbda Shayx Sa’diy degan nom bilan ulug’lanadi. Donishmand shoir Muslihiddin Sa’diy ijodining dovrug’i Sherozdan Qashqargacha, Xitoy, hindiston va Misrdan Shimoliy Afrikagacha yoyilgani bois unga “Shayx”, ya’ni, ustoz nomi berilgandir.

Olim va tarjimon Sh.Shomammedovning ta’kidlashicha, mutafakkirning nomi, tug’ilgan yili, taxallusi turli manbalarda turlicha ko’rsatilgan. Xususan, ayrim manbalarda allomaning nomi Mushrifiddin ibn Muslihiddin Abdulloh, boshqa manbalarda esa Muslihiddin Sa’diy Sheroziy deya keltirilgan.

Alloma tavallud topgan yil ham turlicha ko’rsatiladi. Chunonchi, mazkur sana ba’zi manbalarda hijriy 580 (milodiy 1184), hijriy 589 (milodiy 1193) hamda milodiy 1204 yil tarzida qayd etiladi.

Otasi Sheraz otabegi Sa’d binni Zangiyning mulozimlaridan bo’lgan. Lekin u 10—11 yoshlarida otadan etim qoladi.

Saroy tomonidan nafaqa tayinlangan bo’lsa-da, oilaning moddiy ahvoli og’ir edi. Mayda savdogarchilik bilan shug’ullangan akasining ham bozori tezda kasod bo’ladi. Shunga qaramay, bilimga chanqoq Muslihiddin boshlang’ich ma’lumotni tug’ilgan shahri Sherozda olgach, tahsilni davom ettirish uchun xalifalik poytaxti,

o'sha davrning eng yirik ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodga boradi. Dongdor «Nizomiya» va «Mustansiriya» madrasalarida kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarfu nahfi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib xamda boshqa tabiiy va aniq fanlarni o'rganadi. Taniqli tasavvuf olimi va faylasuf adib Shahobiddin Suhravardiy hamda yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziy qo'lida tahsil oladi.

XI asrda saljuqiylar sultonlardan bir nechtasiga vazirlik qilgan mashhur davlat va jamoat arbobi Nizomulmulk asos solgan «Nizomiya» madrasasi 6 ming talabani o'z bag'riga olsa, «Mustansiriya» kutubxonasida 70 ming jilddan ortiq kitob bo'lgan. Bu ikki ulkan madrasaning musulmon Sharqidagi nufuzini shundan ham bilsa bo'ladi. Talabalar orasida, ayniqsa, zabardast arab shoiri Mutanabbiy she'rlariga qiziqish kuchli edi. Bu mutolaalar keyinchalik Sa'diy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U bu erdagi ilmiy-adabiy davralarda faol ishtirok etib, bilimining keng va chuqurligi, dalillarining o'tkir va asosliligi, voizlik iqtidori tufayli hammaning e'tiborini o'ziga jalb qilar va bahsu munozaralarda hamisha g'olib chiqar edi.

Adibning o'ziga "Sa'diy" taxallusini tanlashiga ham tadqiqotchilar turlicha yondoshadilar. Ana shunday yondoshuvlarning birida mutafakkir mazkur taxallusni forslar orasida mashhur bo'lgan hamda Otabek hokimlari sulolasini boshlab bergan Sa'd binni Zangi nomi asosida tanlaganligi qayd etilsa, yana bir boshqa o'rinda esa ushbu sulolaning vakili hisoblangan Sa'd II, ya'ni, Sa'd ibn Abubakr nomiga nisbat berish tarzida qabul qilganligi e'tirof etiladi.

Muslihiddin Sa'diyning umumiy yoshi xususida ham turlicha fikrlar mavjud, Ayrim tadqiqotchilar allomaning 102 yoshga kirib vafot etganligiga urg'u bersalar, boshqa bir tadqiqot natijasi adibning 120 yil umr kechirganligidan dalolat beradi. Aksariyat manbalarda mutafakkirning vafoti yili hijriy 691 (milodiy 1291-1292) yil deb belgilangan.

Madrasani tutatgan Sa'diy olgan bilimlarini amaliyotga qo'llash o'rniga, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatga o'tlanadi. Buni ikki sabab bilan asoslash mumkin: birinchisi shoirning sayohatga o'chligi, ikkinchisi - mo'g'ullar

tasarrufidagi ulkan hududda ilmu ijod uchun osoyishta shart-sharoitning yuqligi. U goh olim va voiz, goh so'fiy va darvesh suratida Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston kabi mamlakatlarni ba'zida otu eshak, ba'zan esa poyi piyoda kezib chiqadi. Bu sayohatlar 20 yildan ortiq davom etgan. Sayohat davrida Sa'diyga karvonni qaroqchilardan himoya qilib, muhorabaga kirishiga ham, turli joylardagi madrasa va qozixonalarda va'z o'qishiga ham, shayxu so'fiylar bilan mubohasa qilishiga ham to'g'ri kelgan. U hindistonda ham bo'lib, bir muddat butxonada istiqomat qilgan, salibchilarga asir tushib, ularning qal'alarini tuzatish ishlarida qatnashishga majbur bo'lgan. Bu sayohatlar davomida Sa'diy hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi bilan anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib etishadi. XIII asrning o'rtalarida Sherozga qaytib kelgan shoir dunyo tashvishlaridan o'zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx Abu Abdulloh hafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi.

Barcha mashhur kishilar kabi Sa'diy hayoti ham afsona va rivoyatlarga ko'milib kettan. Chunonchi, turli manbalarda shoirning Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohati 20 yildan 50 yilgacha davom etgani naql qilinadi. Yoki u juda uzoq 102, 108, hatto 120 yil umr ko'rgani aytiladi. Go'yo u o'z umrini uch qismga taqsim qilib, 30 yilini ilm tahsili, 30 yilini sayohat, 30 yilini ijodga bag'ishlagan emish. (Ba'zi manbalarda 30 o'rniga, 40 raqami tilga olinadi.) Bu taxminlarning barchasi Sa'diyning tarjimai holi haqida etarli ma'lumot saqlanib qolmaganligidan. Shuning uchun ham shoir ijodining tadqiqotchilari uning tarjimai holini asarlari asosida tiklashga harakat qilganlar. Jumladan, «Bo'ston» va «Guliston» asarlaridagi ba'zi hikoyatlardan kelib chiqib, uning yomon xotinga uchragani, undan bir o'g'il ko'rib, Yamanda bo'lgan vaqtida yolg'iz jigarbandi ham vafot etgani xususida ma'lumot berishadi. Bu haqda «Guliston» da shunday hikoyat keltiriladi:

«Damashqdagi do'stlarimning suhbatlari jonimga tegib, shahardan bosh olib, Quddusi sharif biyoboniga jo'nadim-da, hayvonlar bilan ulfatlashib, to faranglar qo'lga asir tushgunimcha o'sha erda yashadim. Meni yahudiylar bilan birga

qo'shib, Taroblis xandaqini qazishga olib borib ishlatdilar. halablik sardorlardan biri men bilan oshna edi, yonimizdan o'ta turib, meni tanib qoldi-da, xitob qildi: «Ie, bu qanday hol?» Men unga: «Nima ham deyman?» deb javob berdim.

Ahvolimga achinib, o'n dinor to'lab, asirlikdan xalos etdi va o'zi bilan halabga olib ketdi. U erda yuz dinorlik qalin puli bilan qizini menga nikohlab berdi. Oradan sal vaqt o'tgach bilsam, qizi badfe'l, shallaqi va o'jar ekan, tilini zahar qilib, jonimdan bezor eta boshladi.

Oxiri bir kun basharamga tik boqib, ta'na-malomatlar bilan dedi: «Sen otam o'n dinor barobariga faranglardan xalos etgan odam emasmisan?» Men javob berdim: «ha, otang o'n dinor barobariga faranglardan ozod etib, yuz dinor barobariga changalingga topshirgan odam men bo'laman!»

«Bo'ston»ning shoir hayoti tafsilotlariga bag'ishlangan qismida esa quyidagi ishoraga duch kelamiz:

Ba San'oduram, tifle andar guzasht,

Chi go'yam k-az onam, chi bar sar guzasht..

Mazmuni: «San'oda musofirligimda bolam dunyodan o'tdi. Boshimdan kechgan hodisalarning qaysi birini aytay?»

Mo'g'ullar istilosidan tashqari, Evropa mamlakatlarining Sharqqa uyushtirgan salib yurishlari ham Sa'diy davriga to'g'ri keladi. Bu hodisalar shoir yashagan zamonning qanchalik murakkab va og'ir bo'lganligini ko'rsatadi. Uning sayohatlari cho'zilishi, xususan, Arabistonda ko'proq qolib ketishi o'z yurtidagi huddi shu notinchlik, ilmu ijod uchun shart-sharoitning yo'qligidan bo'lsa kerak.

Muslihiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan barcha asarlar 19 bo'limdan iborat kulliyotida to'plangan. Bu to'plam uning vafotidan 37 yil o'tgandan so'ng Abubakr Besutun degan kishi tomonidan to'plangan. Biroq keyinchalik nomi qayd etilgan ana shu muallif kulliyotni qaytadan tuzib, g'azal va boshqa mayda she'rlarni radifi va qofiyasiga muvofiq alfavit tarzida joylashtirib chiqqan, ushbu kulliyotga allomaning to'rtta devoni (g'azallar to'plami) kiritilgan. Kulliyotning

tarkibiy tuzilmasidan joy olgan hamda mutafakkir nomini mashhur qilgan uchinchi devon “havotim” deb nomlanadi.

Tadqiqotchilar Sharqda muayyan muallifga tegishli bo'lgan asarlarni ularning radif va qofiyasiga ko'ra alfavit tarzida devon holatiga keltirish an'anasi Ali binni Abubakr Besutun boshlab bergan harakat asosida yuzaga kelgan bo'lsa kerak, degan taxminni ilgari suradilar.

Sa'diy Sheroziyning Eronda Muhammadali Furo'g'iy tomonidan tartib berilgan kulliyoti 18 qismdai iborat: 1. Guliston. 2. Bo'ston. 3. G'azaliyot (G'azallar). 4. Tarje'ot (Tarje'bandlar). 5. Qit'aot (Qit'alar). 6. Ruboiyot (Ruboiylar). 7. Mulhaqot (Payvasta she'rlar). 8. Mufradot (Fardlar). 9. Mavoiz (Pand-nasnhatlar). 10. Marosiy (Marsiyalar). 11. Qasoidi arabiy (Arabcha qasidalar). 12. G'azaliyoti mushtamil bar pandu nasihat (Pand-nacixat mavzuidagi g'azallar). 13. Musallasot (Musallaslar - har bandi uch misradai iborat sher turi: dastlabki ikki misrasi o'zaro qofiyadosh bo'lib, uchinchi misra keyingi bandlarning oxirgi misrasi bilan hamqofiya bo'ladi). 14. Qit'aot. 15. Ruboiyot dar axloqu mav'iza (Axloq va pand-nasihat mavzuidagi ruboiylar). 16. Masnaviyot (Masnaviylar). 17. Mufradot. 18. Rasoyili nasr (Nasriy risolalar).

Bir umr xalq ichida yashagani, hayotning butun achchiq-chuchugini totgani uchun ham Sa'diy asarlari boshqa Sharq shoirlarinikidan hayratlanarli darajada hayotiyliigi bilan alohida ajralib turadi. Uni Sharq adabiyotshunoslari vuqugo'y, ya'ni hayotni bor bo'yicha tasvirleydigan adib deyishadi. hozirgi termin bilan ifodalaganda, bu realist yozuvchi degani

bo'ladi. «Bo'ston» va «Guliston» hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so'ngida qissadan hissa tarzida keltirgan sherlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi bilan ham jahon ilmu adab ahlini birday o'ziga tortib kelmoqda.

«Guliston»ga ergashib ko'plab asarlar yozilgan, lekin ulardan faqat 3 tasi: Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston»i, Majiddin Xofiyping «Xoriston»i, habib Qooniyning «Parishon»i shuhrat qozongan.

Sa'diy ham kitoblar, ham odamlardan bir umr ta'lim oldi — Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatlari uni dunyoda ko'pni ko'rgan, katta hayotiy tajriba to'plagan, o'z davrining

Dar yaqson olam bigashtam base,

Basar burdam ayyom bo har kase.

Tamatto' ba har go'shae yoftam,

Zi har xirmane xo'shae yoftam.

Mazmuni: «Dunyoning eng chekka joylarigacha safar qildim, turli toifadagi odamlar bilan hamsuhbat bo'ldim. har go'shadan bir manfaat topdim, har xirmondan bir boshq oldim».

XIX asrda yashagan taniqli turk tanqidchisi Ziyoposho «Xarobot» asarida Firdavsiy va Sa'diyni o'zaro qiyoslab, jumladan shunday degan edi:

«... Firdavsiy «Shohnoma»ni vujudga keltirish uchun o'ttiz yil mashaqqat tortdi. haqiqatan ham, o'lmas bir asar yaratdi. Quyosh chiqishini bir yuz yigirma erda bir-biriga o'xshamaydigan bir yuz yigirma xil rang bilan tasvir qilgan. Ammo shunga qaramasdan, «Shohnoma» ommaga Sa'diyning «Bo'ston»i bergan foydani bera olmaydi. Sa'diy «Bo'ston» da dunyoni, yashab turgan dunyoni tasvirlagan. Agar badiiy ijoddan maqsad ommaga foyda etkazish bo'lsa, «Bo'ston»ning har bir so'zi topilmas bir dur, — bir gavhardir va har bir bayti bir xazina».

Shu tariqa, u badiiy asar to'g'risida ommaga manfaati tegishi va ifoda tarzining ochiqligi nuqtai nazaridan muhokama yuritib, Sa'diyni fors-tojik mumtoz shoirlaringshg barchasidan afzal qo'yadi.

Sadriddin Ayniy ham Sa'diyning «asarlaridan aqlga sig'maydigan, o'xshashi tiriklik olamida bo'lmagan yoki bo'lib o'tmagan biror narsani topolmaysiz», — deb lutf etgan edi. U shoir ijodini tekshirish davomida: «Sa'diy, shubhasiz, fors-tojik klassik adabiyotining juda ulug' siymolaridan bo'lib, bundaqasi bo'lmagan», — degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, mumtoz fors-tojik adabiyotida biror-bir adib ijodi Sa'diy asarlarichalik hayotiyiligi bilan ajralib turmaydi. U ilhomni, mavzuni, mazmunni, so'z va obrazli iboralarni xalqdan olib, xalqqa qaytardi. Shoir asarlarinipg xalqchil asosi shunda.

Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» asarida e'tirof etishicha, Sa'diyning «so'zlari hamma toifalarga ma'qul tushdi. Uning haqida bir shoir quyidagi misralarni yozmish va haqiqatan insof gavharini tizmish:

She'r olamida paygambar uchta.

Garchandki, «lo nabiya ba'diy».

Dostonu qasidayu gazalda

Firdavsiyu Anvariya Sa'diy».

Eron adabiyotshunosi Ali Dashtiy shunday lutf etadi:

«Sa'diy kitobi toabad fors tilining o'lchovi bo'lib qoladi: har so'zki, unga to'g'ri kelsa — to'g'ri, har so'zki, unga to'g'ri kelmasa noto'g'ridir».

Sa'diyshunos Muhammadali Furo'iyning yozishicha: «... fors adabiyoti to'rt ustunga suyanadi, bular — Firdavsiy «Shohnoma»si, Shayx Sa'diy «Kulliyot»i, Mavlaviy «Masnaviy»si va Xoja hofiz «Devon» i».

Sa'diy o'zidan keyingi fors tojik adabiyotiga eng kuchli tasir ko'rsatgan zabardast so'z san'atkoridir. «Umuman, butun Sharqda Sadiy nomi juda ko'p tilga olinib turadi. Shoirilar, faylasuflar va olimlargina emas, oddiy xalq namoyandalari ham o'z fikrlarining to'g'riligini isbotlash uchun bu so'z ustodinnng ajoyib asarlaridan dalil keltiradilar. Dono shoirning purhikmat jumalari sakkiz asrdan beri majlislarga, kishilar nutqiga oro berib, ongiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda».

Xalq hayotini yaxshi bilgan Sa'diy ko'plab xalq maqol-matallari, obrazli iboralarini asarlariga olib kiradi. O'z navbatida, bu donishmand insonning o'zi ham ko'plab hikmatlar ijod etganki, ular xalq og'zaki ijodi tarkibiga singib ketgan: ulardan qaysi biri xalqqa tegishli-yu, qaysi biri Sa'diydan o'zlashtirilganligini ajratib bo'lmaydi:

Kimki befoyda umrin o'tkazdi,

hech narsa olmasdan oltin ketkazdi.

Sevinma dushmanim olmish deb ajal,

Bir kuni senga ham gal keladi, gal.

Birlashsa chumoli ittifoq bo'lib,

Arslon terieini olajak shilib.

(Sh. Shomuhamedov tarjimalari)

Sa'diyni hayot muallimi deydilar. Chunki shoirning pandu nasihatlarini, maqol va hikmatga aylanib ketgan chuqur mazmunli fikrlari, falsafiy xulosalari hayotiy: u dunyo kezib, hayotni har tomonlama o'rganib, inson umrining mohiyati, fe'l-atvorining turfa qirralarini uzoq yillar mobaynida teran nigoh bilan kuzatib, ohorli va chuqur mazmunli badiiy umumlashmalar qiladi — ularning xalq maqollariday, hikmatli so'zlarday jaranglashining sababi shunda:

To mard suxan nagufta boshad,

Aybu xunarash nuhufta boshad.

har besha gumon mabar, ki xolist,

Shoyad, ki palang xufta boshad!

Mazmuni: «To kishi so'zga og'iz ochmay turib, uning nuqsonini fazilatini bilib bo'lmaydi. Shunga o'xshab, to'qayni sokin ko'rib, uni tinch deb o'ilama, ajab emaski, bir ovloqda yo'lbars uxlab yotgan bo'lsa!»

Yoki:

Gurbai miskin agar par doshti,

Tuxmi gunjishk az jahon bardoshti.

In du shoxi gov agar xar doshti,

hech kasro peshi xud nagzoshti.

Mazmuni: «Bechora mushukning agar qanoti bo'lsa, dunyoda chumchuqning urug'ini quritar, ho'kizdagi ikki shox eshakda bo'lganpda hech kimni yaqiniga yo'latmas edi».

Pand-nasihat, hikmat Sa'diy asarlarining qat-qatiga singib ketgan. U hayotiy voqea- hodisalarni turli shakllarda ifodalab, ko'rgan-kechirganlari yuzasidan

xulosa chiqaradi va kishilarni insoniy kamolotta da'vat etadi, umr yo'llaridan qoqilmaslik, adashmaslikka, o'tkinchi hayotning qadriga etishga, bir-birini avaylashga chaqiradi, halol mehnat qilib, osoyishta yashashning ahamiyatini tushuntiradi, ilmu hunarning afzalliklarini uqtiradi.

Xech narsa hayotning o'rnini bosolmagani singari, hayot haqqoniyatiga asoslangan asarlarning umri ham boqiy bo'ladi. Ayni jihatdan, shoir she'rlarining har bir hujayrasidan hayot nafasi ufurib turadi. Bu she'rlarning qon tomiri turmushning qaynoq vujudiga ulangan.

hayotning o'zi ustozlik qilgan kishi chinakam donishmand bo'ladi. Chunki hayot saboqlari hamisha jonli va aniq bo'ladi. Buning ustiga, hayot degan ustozning dunyoning jild-jild kitoblariga kirmay qolgan usul va tajribalari ham ko'p. Yillar davomida jild-jild kitoblardan ololmagan sabog'ingni hayot bir lahzada miyanga joylab qo'yishi mumkin. Kitobiy ilmlar xotiradan o'chib ketishi mumkin, lekin hayot saboqlari sira esdan chiqmaydi. Sa'diy hikmatlari hayotdan olingani uchun ham asrlar davomida o'z qimmatini yo'qotmay kelayapti va to er yuzida inson avlodi yashar ekan, ularning ahamiyati zarracha kamaymaydi, bil'aks, ortib boraveradi. Zero, insonning tabiiy va ma'naviy intilishlari hamma davrlar va jamiyatlarda ham deyarli bir xil. Bu sherlar o'z zamonining barcha ilmlarini egallagan alloma, dunyo kezgan donishmand, olam va odam mohiyati ustida bir umr tafakkur yuritgan mutafakkirning o'y-fikrlari, falsafiy umumlashmalari, hayotiy xulosalari. Dunyoni mukammal, hayotni to'kis, insonni barkamol ko'rishni istagan bani bashar taqdiri uchun mas'ul zotning orzu-armonlari, umid-iztiroblari.

2.BOB SA'DIY TA'LIMOTINING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI

2.1. SA'DIY ASARLARINING TA'LIM-TARBIYAVIY MAZMUNI.

Sa'diy asarlarining tili sodda, uslubi lo'nda, xalqona so'zlar va obrazli ifodalarga boy, tashbehu timsollari hayotiy, shsriy san'atlarni mahorat bilan qo'llaydi, shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy yuksak bu asarlarga o'xshatib yozishga uringanlar ko'p, lekin hech kim Sa'diy darajasiga ko'tarilolmagan.

Shuning uchun ham fors-tojik adabiyotshunoslari uning uslubini «sahli mumtane'», ya'ni «oson u, imkoni yo'q» deb ta'riflaganlar.

«Guliston» XVII asrning birinchi yarmidayoq Evropa tillariga tarjima qilinib, tarqala boshlagan. U ilk bor frantsuz diplomati Andre Ris tomonidan frantsuz tiliga o'girilib, 1634 yili Parijda nashr etilgan. Bu tarjima juda erkin bajarilgan va mukammal bo'lmasa-da, ko'pchilikning e'tiborini tortadi. 1635 yili asar frantsuzchadan nemis tiliga tarjima qilingan. Shundan keyin boshqa g'arb tillari, shuningdek, rus tiliga ham o'girilgan. Rus tilida «Guliston» (1957. 1959) va «Bo'ston» (1963) asarlarining mukammal tarjimalari bosilib chiqqan.

«Sa'diy yolg'iz Eron emas, balki Osiyoning, Afriqoning hamma erida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovatini va ifodasining qimmatini Ovrupo ilmu adab ahli ham ko'pdan beri tan olganlar», — deb yozadi mashhur major olimi Xerman Vamberi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I. V. Goyte Sa'diyning «juda mahsuldor va fayzli», «hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir» deb hisoblagan.

Mashhur frantsuz faylasufi va adibi Volter «Guliston» dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlarida undan foydalangan. Taniqli frantsuz masalchisi Lafonten ham «Guliston» dagi hikoyat va naqllardan o'z masallarida istifoda etgan. Ulug' rus shoiri A. S. Pushkin: «Sa'diy va hofiz asarlarining pinhoni asroriga etganimcha she'rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo'stlik kam uchrardi», — degan edi.

Sharq xalqlari hayotiga qiziqish tufayli Pushkin Sharq madaniyati va adabiyotiga ham yuksak bir muhabbat bilan qaradi. Shoirida Sharq mumtoz adabiyoti badiiylarning oliy mezonidir, degan e'tiqod tushuncha shakllandi. Shuning uchun ham u «Boqchasaroy fontani» poemasi uchun Shayx Sa'diyning:

Bar in chashma base dam zadand
Biraftand chu i nashm barham zadand
Charo dil bar in karvongoh nihem

Ki yoron biraftand mo rohem

Ya'ni:

«Bu chashma qoshiga ko'plar biz kabi kelib ketdilar.

Ular xuddi yumilgan ko'z kabi g'oyib bo'ldilar,

Nechun bu manzilgohga ko'ngul qo'yaylik?

Yoronlar ketdilar-u, biz ham yo'ldamiz».

kabi misralarini epigraf qilib oladi.

Bu she'r Sa'diyning «Bo'ston» asaridan olingan parcha bo'lib, Pushkin o'z maktublarida «Poemaning o'zi hech narsaga arzimaydi, lekin epigraf ajoyib», deb yozadi. U Sa'diyning to'rt misra she'rini o'zining eng go'zal poemalaridan biri bo'lgan «Boqchasaroy fontaniadan afzal ko'radi. Pushkinning Sa'diy she'riyatiga ixlosmandligi, buyuk donishmand shoirning Pushkin she'riyatiga chuqur ta'sir etganini nazarda tutib, zamondoshlari uni «Bizning yosh Sa'diy», deb ulug'lashgan. XIX asr rus ziyolilari o'zlarining eng sevimli, eng iqtidorli, eng mashhur shoirlarini Sa'diyga qiyoslab ulug'lashari, faqat Pushkin emas, rus adabiyotining oltin asri vakillari bo'lgan butun adabiy jamoa Sa'diyni sevganiga, bu davr Rusiyaning ma'naviy-ma'rifiy hayotida sa'diyxonlik keng tarqalganligiga ham ishonchli dalil bo'la oladi. Pushkinning bu nomga sazovor bo'lishgi bejiz emas. U Sa'diy ijodini yaxshi bilgan, sevib o'rgangan, ta'sirlangan, shoirning asarlariga va obraziga takror-takror murojaat qilgan. «Lazzatbaxsh favvoralar shabadasida» (1828) she'ri Sa'diy siymosi Pushkin tasavvurida badiiy zakovot dahosi bo'lib manguga muhrlanib qolganini ko'rsatadi.

She'r sharqona hayotiy sahnalar tasviri bilan boshlanadi. Lazzatbaxsh favvoralarining inju tomchilaridan jilolangan yorqin chiroyga ega Sharq o'lkasi... Xon saroyi... Shoir... Sharq xonning hashamatli saroyisiz, saroy shoirsiz bo'lmaydi, deb tasavvur qiladi Pushkin. Shuning uchun bularning uchalasini tabiiy birlik sifatida tasvirlaydi. Shoirni Sharq o'lkalaridagi shohona bazmlarning bezagi deb tasavvur qiladi. Bunday bazmlarda o'qilgan she'rlarni

«Prozrachnoy lesti ojerelya» — «yoniq xushomadlarning inju shodalari», «Naniti prazdnogo veselya» — «bayram shodiyonalari rishtalariga» zukkolik bilan tizilgan «marjonlar yanglig' porloq» va «yangroq» hamda «be- baho donishmandona tasbehlar bilan yo'g'rilgan madhiyalardir», deb ta'riflaydi. Shoir «Lyubili Kro'm so'no' Sa'di» — «Qrimni Sa'diy avlodi sevardi» va bu erda «Poroy vostochno'y krasnoboy. «Zdes razvival svoi tetradi i udivlyal Baxchisaray» — «sharqona so'zamollik bilan o'z sahifalarini takomillashtirib, Boqchasaroyni hayratga solardi» kabi talqinlarida Sharq o'lkalarida she'riy zakovot insonni lol qoldiradigan darajada kamol topganini xayolan tasavvur qilib (albatta bu tasavvur asosli edi, chunki Pushkin Sharq she'riyatining eng buyuk daholari Sa'diy, hofiz, Firdavsiy ijodlari asosida, «Ming bir kecha» singari xalq badiiy zakovotining oliy timsollari asosida Sharq adabiyotining kamolot darajasini tasavvur qilar edi — D.Q.), o'zi ham ko'tarinki ruhiyat osmonida parvoz qiladi. She'rning davomini o'qir ekanmiz, ko'z o'ngimizda Sharqning Pushkin tasvirida ertaknamo tus olgan o'ziga xos manzaralari muhitida «no ni odin volshebnik milo'y. Vladetel umstvenno'x darov, ne vo'mo'shlyal s takoyu siloy» — «hech bir dilkash sehrigar erisholmagan donishmandlik sohibi» bo'lgan «qiyossiz qudrat» bilan rivoyat va she'rlar to'qigan shoirning salobatli va sehrli qiyofasi gavdalanadi. «Uning hikoyatlari yoyilsa, xuddi erevoniy gilamlardek ko'zni qamashtiradi, Pushkin «Kak prozorlivoy i kro'lato'y. Poet toy chudnoy storono'» — «G'aroyib o'lkaning benihoya baland parvoz va o'tkir- fahm shoiri», deb ta'riflagan donishmand Sharqning buyuk suxandoni Shayx Sa'diy siymosi edi. «Uchqur tafakkur bilan to'qilgan rivoyat — «Guliston» va sharqona suxandonlik bilan bitilgan she'rlar — «Bo'ston» asarlariga ishora edi. She'rda Pushkinning Sa'diy dahosiga ehtirom bilan qarashi, uning asarlariga ehtirosli muhabbati sharqona yoniq rangli tashbehlar orqali ifoda etilgan. Zero. Pushkinda sharqona uslubga mayl uyg'otgan asosiy manbalardan biri ham Sa'diyning «Bo'ston»idir. Mazkur she'rdan ma'lum bo'lishicha, Pushkin Sa'diyning «Guliston»iga ham

muhabbat bilan qaragan, shuning uchun bu asarning frantsuzcha nashrini o'zining shaxsiy kutubxonasida e'zozlab saqlagan.

She'rda qo'llanilgan tashbehlar yorqinligi, ko'zni qamashtiruvchi porloqligi, sharqona she'riy san'atlarga xos mubolag'adorligi, sharqona badiiy tafakkurga xos ko'tarinki romantik uslubi bilan Pushkin Sharq mumtoz she'riyati daholari darajasiga yaqinlashib boradi. Rusiyaning buyuk shoiri ham Sa'diyga xos bo'lgan «sharqona so'zamollik» cho'qqilarini zabt etadi. Sharq shoirlarining so'zga ustaligi, badiiy zakovatining yuksakligi haqida fikr yuritish barobarida Sharq ayollarini nurdek tiniq siymolariga ham chizgilar beradi. «U erda ayollari hurlar kabi pokizadir», deb ta'riflaydi. She'rda «hur» so'zi o'zgarmasdan faqat «h» undoshi «g» bilan almashib, «guri» shaklida, ya'ni «guriyam ravno» birikmasida qo'llanilgan. Pushkinning ko'pgina she'rlarida turkiy so'zlarni uchratish mumkin. U bir necha asarlarida «sulton» so'zini ishlatadi. «Ruslan va Lyudmila»da «darvesh» so'zini qo'llaydi. Bir qancha she'rlarida ishlatgan «haram» so'zi avval «garem» shaklida, keyinchalik aslidek «xaram», deb yoziladi.

Faqatgina badiiy asarlarida emas, balki maktublarida ham sharqona so'zlar, turkiy jumlar ko'p uchraydi. S.I.Turgenevga 1821 yil 21 avgustda yozgan xatida Pushkin «sizni begona Turkiyadan, o'z Turkiyamizga (ya'ni Rusiyaga) qaytganingiz bilan qutlayman. ...Shimoliy Stambul (Peterburg)ga tez orada kelasizmi, bizning aziz mufti Aleksandr Ivanovichni men uchun bag'ringizga bosib qo'ying», deb yozgan. Sharq adabiyoti, sharqona she'riy san'atlar bilan qiziqish Pushkin uchun o'gkinchi va davriy kayfiyat emas edi. Sharq adabiyoti, ayniqsa, Sa'diy ijodi uning doimiy e'tiborida bo'lgan. 1830 yil tugatilgan «Evgeniy Onegin» asarida ham yana Sa'diy siymosini yodga olgan va: **«Ba'zilar endi yo'q, o'zgalar yiroq, bir zamonlar Sa'diy degani kabi»**deb yozadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga «Guliston»dan olingan quyidagi misralarning darj etilgani ham Sa'diyning insoniyat shoiriga aylanib ketganligidan dalolat beradi:

**Bani odam a'zoi yakdigarand,
Ki dar ofarinish zi yak gavharand.
Chu uzve ba dard ovarad ro'zgor,
Digar uzvhoru namonad qaror.**

Mazmuni: «Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo'lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabi dirlar. Binobarin, zamon uning bir a'zosiga jarohat etkazsa, boshqa a'zolari ham o'z tinchini yo'qotadi».

1958 yili Butun Jahon Tinchlik Qo'mitasining qarori bilan «Guliston»ning 700 yilligi jahon miqyosida keng tantana qilingan.

Sa'diy asarlari qadimdan o'abek xalqi orasida ham mashhur. «Bo'ston» va «Guliston» asarlari madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o'qitilib kelgan. Mumtoz shoirlarimiz bu ulug' so'z sanatkoriganlar, ta'sirlanganlar. Alisher Navoiyning «Mahbub ul- qulub», Xojaning «Gulzor», Abdulla Avloniyning «Turkiy «Guliston» yoxud axloq» asarlari bevosita Sa'diy «Guliston»i ta'sirida yaratilgan. «Devoni Foniyy»da Sa'diy g'azaliga 22 ga tatabbu', uning tavrida 4 ta g'azal mavjud. Chunonchi, Navoiyniig Sa'diy g'azaliga yozgan bir tatabbu'sida o'qiymiz:

**Foniyy, ba rahi Sa'diy agar zad qadame chand,
Bo o' suxanash bin, ki chu shiru shakar aftod.**

Mazmuni: «Foniyy Sa'diy yo'lida bir necha qadam urgani uchun ham so'zlari sut va shakar ko'shilganidek shirin bo'ldi».

Albatga, tasavvuf adabiyoti namoyandasi sifatida Sadiy so'fiyona she'rlar ham yozgan («Guliston»ning ikkinchi bobida nyuir bolaligida otasi bilan so'fiylar majlisida bo'lganligi to'g'risida hikoya qiladp). Lekin ularda ham, Navoiy ta'biri bilan aytganda, haqiqiy va majoziy muhabbatni mahorat bilan omuxta qilib

yuborgan. «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasida keltirilishicha, Sa'diy Sheroziyga Xizr nazar qilgan. Mashhur tariqat piri Nizomiddin Avliyoga qo'l berib, uning rahbarligida riyozat bosqichlarini bosib o'tayotgan Amir Xusrav Dehlaviy bir kecha tushida Xizr alayhissalomni ko'rib, undan o'z og'ziga muborak tupugipp solib qo'yishini o'tinadi. Lekin Xizr aytadiki: «Bu davlat sendan avval Sa'diyga muyassar bo'ldi!»

Sharq mumtoz so'z san'ati muxlislari e'tiboriga havola qilinayotgan Sa'diy Sheroziy ijodidan dastalangan ushbu to'plamga zabardast fors-tojik shoiri asarlarining o'zbekcha tarjimalari ichidan eng yaxshilari tanlab olindi. Ma'lumki, nasr va nazm aralash xalqona uelubda yozilgani, rivoyat, naql, hikmatga boyligi bilan katta shuhrat qozongan «Guliston» asari o'zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu asarni birinchi marta 1390—1391 yillarda XIV asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi «Guliston bit-turkiy» nomi bilan Misrda tarjima qilgan.

XIX asrda «Guliston» Xiva xoni Muhammad Rahimxon II — Feruz topshirig'i bilan zabardast shoir va mohir mugarjim Muhammadrizo Ogahiy tomonidan ikkinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Asarni birmuncha qisqartirib tarjima qilgani, chunonchi, 187 hikoyatdan 25 tasini qoldirib ketgani, 1000 ga yaqin she'riy parchalardan 522 baytini she'r bilan o'girib, qolganini nasrlashtirgani, bir qancha arabiy matnlarni o'zbekchalashtirmaganiga qaramay, «Ogahiy Sa'diy Sheroziy hikoyatlarining badiiy tarovati, ruhini o'quvchiga etkazadi. Sa'diy saj'lari, ixcham, lekin lo'nda aforistik jumlalarda tuzilgan nasri, qit'a va ruboiylari, serohang, jarangdor ifodalari Ogahiy tarjimasida o'zbekcha nafosat bilan aks etgan» .

«Guliston»ning uchinchi tarjimasi toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li qalamiga mansub bo'lib, u «Shavqi Guliston» deb atalgan. «Murodxo'ja madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so'z va iboratlarini sharhlagan va forsiy originalini ham qo'shib, «G'ulomiya» matbaasida nashr ettiradi» (1909). Lekin so'zma- so'z tarjima printsiplari ustunligi va

badiiy saviyasi baland bo'lmaganligi tufayli bu tarjima uncha shuhrat qozonmagan.

1968 yili «Guliston»ning to'rtinchi tarjimasi bosilib chiqdi. Asardagi she'rlarni G'afur G'ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o'zbekchalashtirishgan. Bu «Guliston»ni hozirgi davr o'quvchisiga tanishtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Mutafakkirning komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi “Guliston” asari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlari tarixida o’ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingan. Ushbu asar muallifning boy hayotiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan ham qimmatlidir.

Shayx Sa’diy o’zining mashhur asarini yaratilish tarixi haqida shunday yozadi:

“Bir kun kechasi o’tgan kunlarimni eslab, behuda ketgan umrimga afsus-nadomatlar chekdim. Oxirida nadomatda qolmaslik uchun xilvatga chekinishim, do’stlar suhbatini va behuda so’zlarni tark qilishim lozim, degan qarorga keldim. Shu vaqt bir mahallar g’am kajavasida hamrohim, hujramda dilxohim bo’lgan do’stlarimdan biri, eski odati bo’yicha, eshigimdan kirib keldi. U qanchalar xazil-mutoyibalar qilmasin va xandon tashlab kulmasin, men unga javob bermadim, ibodatdan bosh ko’tarmadim. Shunda uning ko’ngli og’ridi. Yaqin do’stlarimdan biri «Sa’diy qolgan umrini toat-ibodatda, sukunatda kechirmoqqa jazm etdi. Qo’lingdan kelsa sen ham shunday qilsang yaxshi bo’lardi»,deb vaziyatni tushuntirmoqchi bo’ldi. Shunda do’stim: « Xudoning azimligi va oramizdagi eski do’stlikka qasamki, agar u men bilan avvalgidek muomalada bo’lmasa, uni tashlab ketolmayman, nafas olmayman, tashqariga yo’l solmayman. Chunki do’stni ranjitgan nodon, ammo qasamni buzmoq osondir. Ichgan qasamining gunohini osongina bartaraf eta oladi, biroq uning tanlagan yo’li nodurustdir”.

Xullas kalom, u bilan so’zlashmaslikning ilojini topa olmadim. Uning suhbatidan yuz o’girishni muruvvatdan deb bilmadim. Chunki u mening sadoqatli do’stim edi. U bidan shahar tashqarisiga chiqdik. Fasli navbahor, qahraton sovuqning kuchi kettan, gulu chechaklar ochilgan edi. Do’stlarimizdan birining bog’ida tunab qolishga to’g’ri keldi. Bu juda ajoyib bir joy bo’lib, g’oyatda safobaxsh, dilrabo, daraxtlari bir-biriga ayqashib ketgan, eriga rango-rang shisha parchalari to’shalganga o’xshar, tepadan osilib turgan uzum boshlari esa, Surayyo yulduzlar turkumini eslatardi. Erta tongda, shaharga qaytmoq fikri bog’da qolmoq orzusidan g’olib kelgan mahalda, do’stim etagini atirgul, rayhon, sunbul, nozbo’ va

boshqa gullar bilan to'ldirib, yo'lga chiqmoq taraddudida ekanini ko'rdim. Unga: «Bilasan, gulning ham, gulistonning ham vafosi yo'qdir. Donishmandlar: «har nimarsaki, bevafo — muhabbat qo'yishga noravodur!» deb juda to'g'ri aytganlar. Do'stim dedi: «Xo'sh, u holda nima qilish lozim?» Men unga : «Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan «Guliston» nomli kitob yozishim mumkin, uning yaproqlariga kuz faslining shafqatsiz qo'li etmaydi va zamona o'zgarishlari uning xurram bahorini hazin kuzga aylantira olmaydi».

Har nechuk gul dilingni qilmas chog',

«Guliston»imdan ol biror yaprog'.

Gul zamoni besh, olti kundur bas,

Bu «Guliston» hamisha pok nafas.

Shu so'zlar og'zimdan chiqar-chiqmas do'stim etagidagi gullarni erga to'kib, mening etagimga yopishdi-da, : «Karam sohibi bo'lgan odam va'da berdimi — va'dasiga vafo qilmog'i lozim!» Usha kunning o'zidayoq kitobning notiqdarga fasohat, adiblarga mahorat baxsh etadigan «Muomala va suhbat qoidolari» deb atalmish dastlabki ikki fasli bitdi. Qisqasi, gulistonda gullar tugamay hamon» bitib tayyor bo'ldi **«Guliston»...**

Taniqli sharqshunos olim Sh.Shomuhamedovning ta'kidlashicha, “Guliston” asari XVII asrdayoq frantsuz, nemis va lotin tillarga tarjima etilgan va G'arb mamlakatlarida katta shuhrat qozongan. Asarning rus tilidagi birinchi tarjimasini XVII asrda Adam Oleariy tomonidan qilingan nemischa tarjimasiga muvofiq yaratilgan. XIX asrga kelib, A.Kozimbek (1829 yil), S.Nazaryants (1857 yil), K.Lombars (1862 yil), I.Xolmogorov (1882 yil) kabi tadqiqotchilar ham mazkur asarning rus tilidagi tarjimasini tayyorlaganlar. 1922 yilda esa mashhur sharqshunos olim E.E.Bertals tomonidan tayyorlangan ruscha varianti nashr etilgan.

1957 hamda 1959 yillarda asarning badiiy va akademik tarjimalari SSSR Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida sharqshunos olim R.Aliev tomonidan tayyorlanib, nashr etildi.

“Guliston” asarining o‘zbek tilidagi tarjimalari 1390-1391 yillarda Sayfi Saroyi, XIX asrda mashhur shoir Muhammad Rizo Ogahiy hamda 1909 yilda Murodxo‘ja Soliqxo‘ja o‘g‘li tomonidan tayyorlangan. Fors-tojik adabiyotining bilimdoni, sharqshunos olim Sh.Shomuhamedov 1968 yilda 1959 yilda Moskva shahri hamda 1966 yilda Tehron shahrida chop etilgan nashrlar asosida mazkur asarning o‘zbek tilidagi variantini chop etishga muvaffaq bo‘ldi.

Asar sakkiz bobdan iborat bo‘lib, ularning har birida axloqiy tarbiyaning u yoki bu jihatlari borasida so‘z yuritiladi. Asarning tarkibiy tuzilmasidan o‘rin olgan boblar quyidagicha nomlangan: «Podshohlar odati bayoni» (1-bob), «Darveshlar axloqi bayoni» (11-bob), «g‘anoatning fazilati bayoni» (111-bob), «Sukut saqlashning foydalari bayoni» (1Y-bob), «Zaiflik va keksalik bayoni» (Y-bob), «Ishq va yoshlik bayoni» (Y1-bob), «Suhbat qoidalarini bayoni» (YIII-bob).

“Guliston”ning mundarijasidan ham anglanadiki, asar mazmun va mohiyatiga ko‘ra insonni etuklik, kamolotga etaklovchi omillar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yoritishga xizmat qiladi.

Asarda Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos hojib hamda Nizom ul-Mulk kabi mutafakkirlarning asarlarida bayon etilgani kabi insonning baxtli, saodatli bo‘lishini ta‘minlay oluvchi jamiyat, fozil, odil va adolatli hukmdor hamda uning fazilatlari, saroy a‘yonlari va ularning ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, davlatni adolatli boshqarish shartlari, shuningdek, mavjud jamiyatda ustuvor o‘ringa ega bo‘lgan axloqiy me‘yorlar xususida so‘z yuritiladi. Mutafakkirning nuqtai nazariga ko‘ra, tabiatan olib qaraganda hukmdor ham oddiy inson sanaladi, u ham shaxsiy manfaatlari yo‘lida harakat qilish huquqiga ega, biroq zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifaga ko‘ra u el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo‘yishi shart. hukmdor, eng avvalo, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta‘minlash yo‘lida sabot bilan kurashar ekan jamiyat taraqqiy etadi.

Muslihiddin Sa'diy podshohlarning yuksak insoniy sifatlarga ega bo'lishlarini orzu qiladi. Elu yurt hukmdori sifatida e'tirof etilgan inson quyidagi fazilatlarni o'z qiyofasida namoyon eta olishi maqsadga muvofiqdir: adolatli, tadbirli, g'ayratli, shijoatli, fahm-farosatli, bilimdon, dono, ziyrak, oliyjanob, saxovatli, jasur, mard hamda fuqarolariga nisbatan g'amxo'r bo'la, shuningdek, do'st bilan dushmanning farqiga bora olish. Muayyan mamlakat fuqarolariga etakchilik, boshchilik qilayotgan podshohlarning yuqorida qayd etilgan fazilatlar egasi bo'lishlari hayotiy zaruriyatligini muallif ibratli hikoyatlar misolida ochib beradi.

Asarda ushbu o'rinda quyidagi hikoyat keltiriladi: Shayx Sa'diy aytadi: Anushirvon odil bir kun o'z xizmatchilari bilan ovga chiqdi, ko'pgina hayvonlarni ovladilar. Anushirvon ovlangan hayvon go'shtlarini kabob qilishga buyurdi, tuz yo'qligi uchun bir xizmatchisini chaqirib: — Shu yaqin oradiga qishloqqa borib tuz keltir, lekin bahosini to'lab, egasini rozi qil, — deb buyurdi. Xizmatchi taajjub qilib: — Arzimagan narsa uchun ham egasi norozi bo'ladimi? haqqini to'lamay olaversak egasi nima ziyon ko'rardi? — dedi. Anushirvon aytdi: — So'zing to'g'ri emas, chunki zulm, adolatsizlik mana shunday arzimagan narsadan boshlanib, zo'rayib ketadi. Agar men bog'bonning bir olmasini arzimagan narsa deb, bahosini to'lamay olib esam, odamlarim u olma daraxtini butun ildizi bilan sug'urib oladilar yoki egasidan so'ramay yarimta tuxum olib esam, odamlarim mingta tovuqni sixga tortadilar. Mana shunday qilib, zulm, adolatsizlik kuchaya borib, xalq boshiga kulfat balosi yog'iladi. Shayx Sa'diy aytadi: Ey, baxtli odam, oliy himmatli bo'l, hech kimdan yordamingni ayama, xalqni izzat, hurmat qilsang, xalq ham seni izzat, hurmat qiladi. Zolim va mutakabbir bo'lsang, bir kun buning jazosini ko'rasan. G'arib, bechoraning ko'nglini og'ritma, tarixga bir nazar sol, necha-necha zo'r davlat va qudratga ega bo'lganlar ehtiyoj va zarurat girdobida g'arq bo'lganlar,... Yo'qchilik, kambag'alchilik o'tida qovurilganlar esa baxt, tolelari yor bo'lib, qudrat va azamat egasi bo'lganlar. Sen bir g'arib bechoraning ko'nglini og'ritsang, bir kun mensimagan u kambag'al qudratga to'lib, sen esa uning holiga tushib qolishing mumkindir. Buni unutma, oqibatini o'yla. ha, qissadan hissa

chiqarish mumkinki, bizga ozgina bo'lsa ham ezgulik qilgan odamga ezgulik qaytarish burchimizdir... Demak har bir qilinadigan ishni oqibatini o'ylab qilish lozimdir. («Donishmandlar odob-axloq to'g'risida»)

Fuqaroning bog'chasi dan sulton uzsa bir olma,

Navkarlari qo'poradi daraxtlarning ildizin.

Zo'rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,

Askarlari sixga tortar tovuqlardan besh yuzin».

Alloma podshohlarning adolatli bo'lmog'larini nihoyatda muhim deb hisoblaydi. hukmdorning ushbu sifatga ega bo'lishi mamlakatda tinchlik, fuqarolar o'rtasida o'zaro ahillik, hamjihatlilikni tarkib topishiga zamin hozirlashini alohida qayd etadi. Adolatli sulton hukmronlik qilayotgan mamlakatda xalq yurtboshidan ibrat oladi, uningdek ish yuritishga harakat qiladi. Mazkur o'rinda Muslihiddin Sa'diy quyidagi misralarni keltiradi:

O'z xalqiga jabru zulm ravo ko'rgan podshohning,

O'z do'stlari yov bo'ladi qiyin dam kelgan kuni.

Fuqaroga shafqat qilsang, dushmandan omondasan,

Adolatli shahonshohning xalqi – bu o'z qo'shini.

Muslihiddin Sa'diy adolatli podshohlarning yorqin timsoli sifatida Iskandar Zulqarnaynni e'tirof etadi. Uning obrazi asosida mamlakatni adolat mezonlari yordamida boshqarishning muhim ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi va quyidagi hikoyatni misol tarzida keltiradi: Iskandar Rumiy (Zulqarnayn)dan so'radilar: «G'arbu Sharqdagi mamlakatlarni nima hisobiga zabt etding? Avvalgi podshohlarning xazinasini, yoshi va lashkari kenikidan ortiq bo'lsa-da, bunday fotihlik ularga nasib bo'lmagandi». Iskandar Zulqarnayn shunday javob beradi: «Zabt etgan mamlakatim fuqarolariga ozor bermadim va podshohlarning nomlarini faqat yaxshilik bilan yod etdim:

Aqllilar ulug'lama shundaylar zotin,

Ulug'larning yomonlik-la, yodlasa otin,

Taxtu baxt farmonlar, ta'qiq va zo'rlik,

**Barchasi bekorchi, o'tib ketadi.
Siylasang o'tganlar aziz nomini,
Sening nomingga ham hurmat etadi».**

Mutafakkir yurtga boshchilik qilayotgan hukmdorning yuksak aql-zakovat egasi bo'lishi mamlakatda adolatning qaror topishi, shuningdek, ma'rifatning rivojlanishida zarur omil ekanligiga ham alohida urg'u berib o'tadi. hukmdorning nodon va befarosat bo'lishi xalq o'rtasida uning obro'-e'tiborini tushishiga sababgina bo'lib qolmay, kulgu bo'lishiga olib keladi. Asarning ushbu o'rnida mutafakkir quyidagi hikoyatni keltiradi. «Xorun ar-Rashid Misrni egallagach, olomonga qarata shunday dedi: «Misr saltanatiga mag'rurlanib, xudolik da'vo qilgan nobakorning qasdiga o'laroq, bu mamlakatni o'zimning eng manfur qulimga topshiraman». Xorun ar-Rashidning bir zanj quli bo'lib, nomi husayb edi. Misr mamlakatini idora etish vazifasini ana shu qulga topshiradi. husaybning fahm-farosati shu darajada ediki, Misrning bir guruh dehqonlari uning yoniga shikoyatga kelib, «Paxta ekkan edik, bevaqt yomg'ir yog'ib, paxtamiz nobud bo'ldi», - deganlarida, u: «Jun ekish kerak edi, nobud bo'lmasdi», - deya javob beradi».

Bilimli, dono va zukko insonlar hamisha ham elu yurtida o'zlariga munosib hurmatga sazovor bo'lavermaydilar. Aksincha, nodon, johil hamda takabbur kimsalar ko'p hollarda yuqori martaba va mansablarga ega bo'ladilar. Ushbu fikrlar Muslihiddin Sa'diy qarashlarida quyidagicha ta'qin etiladi:

**Agar bilim to'q yashashga vaj bo'lsa,bo'lsa,
Ajabmasdi nodonlar ochdan o'lsa,
Lekin nodon shuncha ko'p boylik oladi,
Ko'p donolar bunga hayron qoladi.
Baxtli va davlatli bo'lmas bilimdon,
Buning barchasiga sabab osmon.
Jahonda uchraydi takror va takror
Axmoqlar hurmatda, aqlilar xor.
Kimyogar qiynalib o'lib ketadi,**

Ablahga xazina nasib etadi.

Asarning “Darveshlar axloqi bayoni”, “Qanoatning fazilati bayoni”, “Sukut saqlashning foydalari bayoni”, “Ishq va yoshlik bayoni”, “Zaiflik va keksalik bayoni”, “Suhbat qoidalari bayoni” kabi boblarida esa har bir inson oʻzida tarbiyalay olishi zarur boʻlgan maʼnaviy-axloqiy, aqliy hamda jismoniy sifatlar, ularning mohiyati, shuningdek, ushbu xislatlarga ega boʻlishning yoʻl va usullari borasida soʻz yuritilgan.

Muslihiddin Saʼdiy ham boshqa mutafakkirlar kabi ilm oʻrganishning ahamiyati, bilim olish jarayonida amal qilinishi lozim sanalgan shartlar, mazkur shartlarga muvofiq faoliyatni tashkil etish qoidalari, ilm ahli va ularning odobi masalalari yuzasidan toʻxtalib oʻtar ekan, mavjud bilimlarni chuqur egallagan olimlarning xalq oʻrtasida obroʻ-eʼtiborlari yuqori boʻlishini aytadi. Bayon etilayotgan hikoyatlar mazmunida jamiyat aʼzolarini oqil va dono kishilarni hurmat qilishga undovchi daʼvat oʻz ifodasini topgan. Ayni oʻrinda ilimli kishilarning oʻz bilimlarini jamiyat hamda insonlar uchun foyda keltiruvchi ishlarga sarf etishlari muhimligi alohida taʼkidlanadi: “Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan boʻladi: biri mol-mulk yigʻib foydalanmagan va ikkinchisi esa ilm olib unga amal qilmagan odam”. Xususan:

Harchan oʻqibsan, bilimdonsan,

Agar amal qilmading, nodonsan,

Ustiga kitob ortilgan eshak,

Na olim va na donodir beshak”.

Mazkur fikrni yanada boyitib, bir oʻrinda «Ilmiga amal qilmagan olim mashʼala koʻtargan koʻrga oʻxshaydi!», – desa, yana bir oʻrinda erni shudgor qilib, urugʻ sochmagan dehqonga oʻxshatadi, yaʼni:

Kimki befoyda umrin oʻtkazdi,

Hech narsa olmasdan, oltin ketkazdi.

Muslihiddin Saʼdiy bilimli va fozil kishilarning soʻz va amal birligiga tayanishlari maqsadga muvofiq ekanligini taʼkidlaydi. Ezgu soʻzlarni aytuvchi olimlarning bildirilgan fikrlarga oʻzlari amal qilmasliklari kishilar oldida

obro'larining tushishiga sabab bo'luvchi omillardan biridir degan g'oyani ilgari suradi. Mazkur holatning isboti sifatida quyidagi hikoyatni keltiradi:

Bir fakih (huquqshunos) otasiga dedi: «Voizlarning dabdabali va bezakli so'zlari menga sira ta'sir etmaydi, chunki ularning gapirgan gaplari qisman ishlariga mos kelmaydi»:

Har olim aytganni o'zi qilmasa,

Ne ajab xalq uning so'zin ilmasa?!

Olim o'sha kishi - yomonlik qilmas,

O'z so'zin aksini qilg'uchi emas.

Otasi dedi: «Ey o'g'lim, shunday bir asossiz mulohaza bilan nasihatgo'ylardan yuz o'girib, barcha olimlarni qoralash, aybsiz olim axtaraman, deya ilm o'rganishdan bebahra qolmoq oqillarga munosib ish emasdur Voizlar (nasihatgo'ylar) majlisi ham choponfurushlar do'koni kabidir. Naqd puling bo'lmasa, choponfurushlik do'konidan mol ololmaysan, voizlar majlisiga ixlos qilmasang, ko'nglingda xotirjamlik paydo bo'lmaydi.

Olim aytganiga jon qulog'ing tut mahkam,

O'z so'zi ishga teng bo'lmagan chog'ida ham.

Maqtanchoq kishilarning gaplari erur bekor.

Uxlagan uxlaganni uyg'otganmi biror dam?

Devorga yozilgan bo'lsa ham o'chib,

Unga amal qilgay esi bor odam.

Xonaqohdan madrasaga keldi yurakli kishi

Va tariqat ahli bilan ulfatchilik uzdi».

Mazkur o'rinda alloma, yana shuningdek, dono va oqillarning nasihatlarini eshitish, ularga og'ishmay amal qilish inson hayotining mo''tadil kechishi uchun poydevor bo'lishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi. Olimlar tomonidan aytilayotgan fikrga amal qilish o'rniga ularning faoliyatlari mazmunini tahlil etish nodonning ishidir, deydi. Darhaqiqat, inson har qanday vaziyatlarda ham ro'y bergan yoki ro'y berayotgan voqea-hodisalardan o'zi uchun tegishli xulosa chiqara olishi, o'z hayoti, o'zgalarning xatti-harakatlari uchun dahl etmaydigan holatlar

mohiyatini o'rganishga urinish qimmatli vaqtni behudaga sarflashdan boshqa narsa emas.

Alloma ilm o'rganish jarayonida munozara uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Muslihiddin Sa'diyning nuqtai nazariga ko'ra, bahs-munozara oydin bo'lmagan fikrlarni oydinlashtirish, aniq bo'lmagan dalillarni asoslash, shuningdek, haqiqatni to'laqonli anglashga yordam beradi. Bahs-munozarani tashkil etish ma'lum qoidalarga asoslanishi zarur. Chunonchi, o'zgalarning fikrini diqqat bilan tinglay olish, o'z fikrini ilgari surishda ishonchli dalillardan foydalanish, asosli bo'lmagan dalillarni keltirish orqali vaqtni behudaga sarf etmaslik, nodon bilan bahslashmaslik. Munozara chog'ida o'zini bilimdon etib ko'rsatish o'z nodonligini namoyish qilishdir, – deydi alloma. «O'z navbatida johil bilan bahslashgan olim izzat umid qilmay qo'ya qolsin. Basharti, johil bellashuvda olimdan ustun chiqsa, ajablanarlik eri yo'qdir, zero, tosh hamisha gavharni sindiradi, xususan:

Oqilga past kishi ko'rguzsa jafo,

Ko'p alam chekmasin bo'lib dilsiy.

Arzon tosh sindirsa zar kosani gar

Tosh narxi oshmaydi, pastga tushmas zar».

Ayrim vaziyatlarda nodon kishilar odil va dono insonlarni asossiz fikrlarni bayon etish orqali ularni mag'lub etdim deb hisoblaydilar. Munozara jarayonida dono inson o'zining ushbu fazilatiga tayangan holda nodon bilan bahslashishni o'zi uchun or deb biladi va ana shu xatti-harakati tufayli badfe'l kishilardan ustun bo'lib qolaveradi, xalq orasidagi hurmati yanada oshadi. Muslihiddin Sa'diy ushbu fikrni quyidagi misralar yordamida yanada to'ldiradi:

Dononi sharmanda qildim-ku, deya,

G'ururga berilmish maqtanchoq, nodon,

Bilmaski, nog'ora ovozi doim,

“Hijoz” kuyin bosib ketadi oson.

Ilm-fanning ilmiy bahs-munozaralarsiz rivojlanmasligi g'oyasi alloma tomonidan ilgari surilgan mazkur fikrda ham o'z ifodasini topgandir: quyidagi uch holat abadiy mavjud bo'lmaydi: mol savdosiz, ilm bahssiz va davlat siyosatsiz.

Muslihiddin Sa'diy ta'lim va tarbiya ishlarini samarali yo'lga qo'yishning ahamiyatini ochib berish bilan birga aksariyat bolalarning tug'ma qobiliyatga ega bo'lishlarini e'tirof etadi. Muayyan qobiliyatga ega bolalarga berilayotgan ta'lim va tarbiyaning izsiz kechmasligi, shuningdek, ma'lum kasb yoki hunar sirlarini yoki ilm asoslarini o'rganishga nisbatan qobiliyatga ega bo'lmagan bolani donishmand qilib voyaga etkazish mumkin emasligini quyidagi to'rtlik yordamida yoritib beradi:

Qobiliyat bo'lsa aslida

Tarbiyat unga qiladi asar

Qancha urinma bo'lmas sayqali,

Temir aslida bo'lmas javhar.

Mutafakkir ham ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda muallimning talabchan va qattiqqo'l bo'lishi borasidagi qarashni yoqlaydi. Zero, ilm o'rganishdek mashaqqatli jarayon uzluksiz, izchil tashkil etilishi zamonaviy pedagogikada ham alohida e'tirof etilgan. Ta'lim jarayonining uzluksiz va izchil kechishi ma'lum talablarga og'ishmay amal qilish evaziga kechadi. Ta'lim oluvchilarning mazkur talablarga amal qilishlari doimo muallimning nazorati ostida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. g'uyidagi to'rtlikda ana shu qarash o'z ifodasini topgan:

Yubordi o'g'lini maktabga podsho,

Qilib qo'yniga nuqra taxtacha jo

Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:

“Ota mehridan afzal jabri ustod”.

Muslihiddin Sa'diy ham bilim olishning afzalliklarini yoritib berish bilan birga ma'lum hunar sirlarini egallashning inson hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib berishga urinadi. Allomaning qayd etishicha, muayyan hunarning egasi bo'lgan inson eng mashaqqatli damlarda ham o'zgalarning yordami va madadiga muhtoj

bo'lmaydi, balki o'z hunarining sharofati bilan muammolarni hal eta oladi. Shuningdek, hunarmand xalq o'rtasida hurmatga ega bo'ladi. Zero, u insonlarning koriga yaraydi, ularning mushkullarini echilishiga yordam beradi. hunarsiz kimsa esa hamisha o'zgalardan madad kutib yashaydi, xoru zorlikda umr kechiradi. Mutafakkir ta'kidlab o'tganidek, "hunar qaynar buloq, tuganmas davlat. Agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi":

Istar esang otangdan meros,

Bog'la otang ilmiga ixlos .

Ne nafi bor otang boyligin,

Bir kun tugatursan necha oyligin.

Allomaning mazkur fikrlaridan, bugungi kun yoshlarining ham muayyan kasb yoki hunar sirlarini qunt bilan o'rganishlari hayotiy zaruriyat ekanligini anglash mumkin. Atrofdagi kishilarning turmush tarzlari mohiyatini tahlil etsak, ma'lum kasb yoki hunar bo'yicha ma'lumotga ega insonlar bilan kasb va hunarsiz kishilar o'rtasidagi farqni yaqqol sezamiz. Ularning dunyoqarashlari, atrofdagilar bilan munosabatlari, hayotiy yondoshuvlari ham bir-birlaridan farq qiladi.

Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" asarida inson kamolotining ta'minlanishida tarbiyaning alohida o'rin tutishiga ham urg'u beradi. Tarbiya jarayonini tashkil etish murakkab jarayon ekanligini ta'kidlagan holda bolaga juda yoshligidan tarbiya berish maqsadga muvofiqligini uqtiradi. Zero, yoshlik yillarida bola ongiga singdirilgan axloqiy talablar uning xarakteri, xulq-atvorining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu fikr mutafakkir qarashlarida shunday aks etadi:

Kimga yoshligidan berilmas odob,

Ulg'aygach, bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.

Ho'l novda egilar qay xilda egsang,

Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash.

Muslihiddin Sa'diy mazkur asarida yuksak darajadagi insoniy xislatlar va ularga ega bo'lishning inson hayotidagi ahamiyati borasida ham batafsil so'z yuritadi. Alloma insoniylik hamda saxiylik sifatlariga ega bo'lish shaxs kamoloti darajasini ko'rsatuvchi eng yuqori mezonlar ekanligini quyidagi satrlar orqali bayon etadi:

Qutida turganda burqmaydi ud,

Sen olov ustiga uni tashlagil.

Ulug'lik niyating bo'lsa saxiy bo'l,

Urug' sochilmasa, unmaydi hosil.

Asarda saxiylik fazilati ulug'lanishi bilan birga, o'zgalar muruvvatiga sazovor bo'lgandan ko'ra mashaqqatli mehnatni afzal deb biladi. Zero, aksariyat o'rinlarda saxiylik sifatida namoyon bo'lgan holatlarning zaminida ta'ma, minnat ko'zga tashlanib ham qoladi. Minnatli, ta'mali lazzatli taomlardan ko'ra, minnatsiz bir burda qattiq non, mehnat evaziga topilgan rizq afzaldir, deydi. Shu o'rinda quyidagi ibratli hikoyat keltiriladi: «Hotam Toyidan so'radilar: O'zingdan ko'ra saxiyoq biror odamni hech ko'rganmisan, yohud eshitganmisan? Shundan Hotam Toyi shunday javob berdi: ha, ko'rganman. Bir kun arab amirlarini ziyofat qilish uchun qirqta tuya so'ydirdim. Ittifoqo, bir zaruriyat bilan sahroga chiqishimga to'g'ri keldi. U erda cho'p-chumak terib dastalayotgan o'tinchini ko'rdim. Men unga qarab dedim: Nega, Hotamning uyiga bomaysan, axir, hozir bir talay odam uning ziyofat dasturxoni atrofida o'tirishibdi-ku?! Shunda u dedi:

O'z mehnatidan non egan kishi,

Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Hotam dedi: Ana shu o'tinchini men o'zimdan ko'ra saxovatliroq deb bildim».

Yana bir hikoyat:

Qadim zamonlarda Yaman diyorida qudratli va sarvatmand hokim bo'lgan ekan. U o'zining saxovatpeshaligi, yaxshiliklari bilan nom chiqargandi. Xojatmandlar uning huzuriga borib, arz aylashar, hokim esa

ularning mushkullarini darrov hal etardi. Shunday qilib, uning shon-shuhrati el-yurt oldida kundan-kunga ortib borardi.

Bu hokim kishilarning mahbubi bo'lgan, saxiylik va va kechirimlilikda nom chiqargan Hotam Toyi zamonasida yashardi. U Hotam Toyini yaxshi bilar, saxovatpeshalikda undan o'tishga harakat qilardi. Ammo u qanchalik urinmasin, o'z maqsadiga eta olmadi. hamma Hotam Toyini tildan –tilga qo'ymay maqtashardi.

Shu sababdan hokimning yuragida Hotam Toyiga nisbatan hasad o'ti alangalab yona boshladi. Oxir-oqibat bu yamanlik hokim Hotam Toyini o'ldirmoqchi bo'ldi. Topshiriqni bajarish uchun kuch-qudrat sohibi bo'lgan pahlavon navkarini tanladi.

Pahlavon uchqur otiga minib, bani Toy qabilasi tomon yo'l oldi va nihoyat uzoq yo'l bosib, horib-charchab, ochiqqan-tashna holda ular yashaydigan makonga etib bordi. Bu qabiladan qad-basti kelishgan bir yigit unga peshvoz chiqib, pahlavonni o'z uyiga tunash uchun taklif etdi. Uning shirinso'z ligidan, o'ta mehribonligidan xursand bo'lgan pahlavon darrov uning taklifini qabul etdi. Mezbon yigit uni lazzeatli taomlar bilan mehmon qildi. Shunday qilib pahlavon bir kechani bu erda o'tkazdi. Erta tongdayoq hokimning buyrug'ini tezroq bajarish uchun bu erdan ketmoqchi bo'ldi.

Mezbon yigiti pahlavonni yana bir necha kun uyida qolib, aziz mehmoni bo'lishga undadi. Pahlavon unga minnatdorchilik bildirib dedi:

"Ey yaxshi yigit, men bu mehmondo'stligingni hech ham unutmayman. Uyingda qolishni juda-juda istayman, ammo shoshib turibman. bir muhim ishning orqasidanman, uni tezroq bajarishim kerak"

Ziyrak yigit dedi: "Agar malol kelmasa, yumushingni ayt, qo'limdan kelsa senga ko'maklashaman".

Pahlavon bir lahza o'ylanib, o'ziga-o'zi dedi:

"Bundan chiqdi, bu dono, ziyrak, saxiy, mehribon yigit kishining arz-dodini ham tinglashga tayyor ekan. Qanday ham fidoyi yigit! Mehmoni uchun barcha ishni qilishga ayyor. Yaxshisi bo'ynimga qo'yilgan topshiriqni bu dono yigitga so'zlab beray, ko'maklashsa, men ham buyruqni tezroq bajarib vatanga qaytaman".

So'ng yigitga qarab dedi: " Hotam Toyini taniysanmi? Odamlar uni o'ta saxiy va kechiruvchan deb

aytishadi. Yamanlik hokim mendan uning boshini tanasidan judo aylashimni va kesilgan boshini unga olib borishimni buyurgan. Ey do'st, ko'rsatgan iltifotlaring uchun rahmat. Agar Hotam Toyini menga

ko'rsatsang, shu sening yordaming bo'ladi".

Yigit kulimsirab dedi: " Menman Hotam Toyi, endi topshiriqni bajarishga kirish, boshimni tanamdan judo ayla!"

Dahshatga tushgan pahlavon yigitga qarab qotib qoldi. Uning so'zlariga hech ham ishonmasdi. Axir bu qanaqa Hotam Toyiki, boshini tanasidan judo qilishni o'zi xohlaydi.

Hotam Toyi uni parishon va hayratzada turishini ko'rib dedi: "Ey pahlavon, vaqtni o'tkazmasdan tezroq qimirla, shamshiringni ol-da, boshimni tanamdan judo ayla! Oftob chiqsa, qabilam ahli rejangdan ogoh bo'lishib, senga ozor etkazishlari mumkin, O'shanda bo'yningga qo'yilgan topshiriqni bajara olmaysan. Shuning uchun fursatni qo'ldan bermay, tezroq qimirla!"

hayratlangan pahlavon yigit o'ziga-o'zi dedi: " Bu qanday inson o'zi ? Umrimda birinchi bor ko'rishim bunaqa odamni?! U bunchalik saxiy,

bunchalik kechiruvchan ! hatto mehmon uchun o'z shirin jonini tarig' tutmaydi-ya!"

Hotam Toyi o'tirdi va boshini erga qo'ydi. hayajonlangan pahlavon esa shamshirini erga otib, yiqildida, uning qo'l-oyog'ini o'pib, boshiga tuproq socha boshladi.

Hotam Toyi unga qarab dedi: "Ey polvon yigit, nega endi bunday qilasan? Nega endi o'zingni erga urasan?"

Nega endi qo'l-betingga tuproq sochasan? O'rningdan tur, shoshil tezroq, axir buyruqni bajarish uchun kelgansan-ku! Yoki topshiriq yodingdan ko'tarildimi?"

Pahlavon yigitning buyukligiga dosh berolmay, zor-zor yig'ladi va yig'i aralash zoralar ayladi:

" Axir men sendek insonga qanday qilib ozor beray?!. Bu odobu ahloqqa, insoniylikka, mardlikka to'g'ri kelmaydi!"

U shunday deb o'rnidan turdi-da, Hotam Toyiga mehrli qarab, uning o'ta kechirimliligidan lol qolib yana yig'ladi. So'ngra uning ko'zlardan o'pib, xayrlashdi-da, Yaman mamlakati tomon yo'l oldi.

Yamanlik hokim esa bahodirning tezroq kelishini sabrsizlik bilan kutayotgandi. Pahlavon yigit uning huzuriga bir oz xijolatda va shu bilan birga dadilona yo'l oldi. hokim uning qiyofasidan topshiriqni bajarmaganini darrov bildi va qanday voqea ro'y berganini oqizmay-tomizmay so'zlashini aytdi.

Pahlavon yamanlik hasadchi hokimga kinoyali nigoh tashlab, dedi: " Ey shohanshoh, bu uzoq yo'lda menga biror bir yirtqich hayvon hamla qilgani yo'q. Sog'- salomat bani Toy qabilasi joylashgan makonga etib bordim.

Hotam Toyini ham osonlik bilan tezda topdim. Ammo uni o'ldira olmadim. Chunki u o'ta saxiy, o'ta kechiruvchan fidoyi inson ekan. Men rostdan ham uni o'ldirmoqchi edim. Ammo u o'zining saxovat va fazilati qilichi bilan meni mag'lub etdi".

So'ngra bo'lgan voqeani, Hotam Toyining o'ta mehmonnavozligi , saxiyligi , kechirimliligi , fidoyiligi, xullas, u haqda nimani bilsa, hamma-hammasini aytib berdi.

Pahlavonning so'zlarini tinglagan hokim bir oz jim qoldi. So'ngra boshini egib, chuqur o'y-xayolga toldi. Hotam Toyiga bo'lgan hasad jilvalari vujudini tark aylab, yuragida unga nisbatan ajib bir mehr paydo bo'lgandi. Bir muddat sukut saqlab jim qoldi. So'ngra jimlikni buzib dedi:

"Darhaqiqat saxiylik va kechirimlilikda hech kim Hotam Toyiga tenglasha olmas ekan".

Insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, o'zgalardan yordamini ayamagan, boshiga kulfat tushgan kishilarga yordamga oshiqqan, eng og'ir damlarda do'st yonida bo'la olgan, unga nisbatan g'animlik qilgan kimsalarga nisbatan ham muruvvat ko'rsata olganlar komil insonlar ekanligi allomaning qarashlarida mujassam etadi. O'zida yuksak darajada insoniylik xislatlarini namoyon eta olgan No'shiravoni Odilni barcha uchun ibrat qilib ko'rsatadi. Xususan,

Er ostiga ko'mildilar talay nom chiqarganlar
Va ularning borligidan erda nishon qolmadi.
O'laksani tuproqlarga topshirib ketgandan so'ng,
Tuproq uni eb bitirdi-yu, bir ustuxon qolmadi.
No'shiravonning qutluq nomi haligacha tirikdir,
Ammo qancha o'tib ketib No'shiravon qolmadi.
Ey falonchi, yaxshilik qil, umringni bil g'animat,
To kishilar aytguncha, "falon, falon qolmadi".

Muslihiddin Sa'diy asarlarida ham mehnat ulug'lanadi. Inson o'z mehnati evaziga yuksak qadr-qimmatga ega bo'ladi deb hisoblagan alloma insonning hamisha o'z mehnati, bilimi va hunariga tayanishini maqsadga muvofiqligini e'tirof etadi. hz mehnati bilan kun kechirayotgan insonga ta'ma, ochko'zlik, hasadgo'ylik, hirs va nafs balosi begonadir. Zero, doimiy ravishda mehnat qilish bilan band bo'lgan kishi ruhan yuksalib boradi. Natijada unda qanoat, nafsini o'ziga bo'ysundira olish tuyg'usi shakllanadi. Qanoatli bo'lish uni ochko'zlik, hirs va nafs balosiga yo'liqishdan himoya qiladi. Mehnati natijasida xonadonida qutu baraka bo'ladi, ehtiyoji uchun zarur narsalarni mehnati orqali topa olishiga ishonadi. Shu bois u o'zgalarga hasad qilish tuyg'usidan yiroqda bo'ladi. Asar mazmunida quyidagi o'rinda ushbu hikoyat keltiriladi:

hikoyatlaridan birida "Men bir donishmanddan: "Eng ashaddiy dushmaning ikki kifting orasida joy olgan nafsingdir", degan hadisning ma'nosi nima?" deb so'radim. Donishmand shunday javob berdi: "Ma'nosi shuki, har bir dushmanga ehson qilsang, u senga do'st bo'ladi, illo nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang, adovatini shuncha oshiraveradi.

Maromida ovqat egan farishta bo'lur,

hayvon kabi esa tushar og'ir tosh misol.

Kim istagin bajo qilsang amringga tobe.

Nafs aytganin qildingmi, bo'ysindirmoq, mahol

Muslihiddin Sa'diy do'st va uning sadoqati xususida ham so'z yuritadi. Uning fikrlariga ko'ra, inson hamisha do'st va uning hamrohligiga ehtiyoj sezadi. hayotidagi quvonchli va fojiali kunlarida do'stning suhbatlari diliga shodlik va ruhiy engillikni olib kiradi. Alloma do'st kishining o'zgalardan farqi eng og'ir damlarda boshiga musibat tushgan birodarining yonida bo'la olish, unga madad berish, shuningdek, do'stligidan ta'ma qilmaslik kabi xislatlarga ega bo'lishida deb biladi. Shu bilan birga inson do'st tanlashda nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi lozim deb topadi. Zero, do'st kishining hayoti va faoliyatida ro'y berayotgan barcha hodisalardan xabardor bo'ladi. Badxulq kishi do'stligidan foydalanib, qulay vaziyatlarda unga nisbatan ziyon etkazishi mumkin. Shu sababli inson, eng avvalo,

do'st bilan dushmanni farqlay olish layoqatiga ham ega bo'lmog'i zarur. Mutaфakkirning bu xususidagi qarashlari uning quyidagi to'rtligida o'zining yaqqol ifodasini topgan:

Qo'ling ochiq, dasturxoning mo'l kuni,

Do'stu yoring mana, menman deganmas

Do'st o'shaki, qiyin kunga tushganda

Qo'ltig'ingdan dast ko'tarib qo'ygan kas.

Allomaning nazarida, do'st o'z manfaatini birodarining manfaatidan yuqori qo'yadi, do'stining manfaati yo'lida berayotgan yordami beg'araz bo'ladi. Do'st hech qachon, har qanday vaziyatlarda ham dushmanning ishini qilmaydi, deya ta'kidlaydi. Shu bilan birga do'stlar o'rtasida tashkil etilayotgan munosabat jarayonida ham o'ta darajada ehtiyoj bo'lish zarurligini uqtiradi. Xususan:

Birovga sir aytib, saqla degandan,

Dil sirin hech kimga aytmagan ma'qul.

Ariq toshib ketsa, bog'lab bo'lmaydi,

Suvni eng boshidan qaytargan ma'qul.

Berkitmoqchi so'zni aytib bo'lmaydi,

har majlisda aytib, qaytib bo'lmaydi.

Do'st-la so'zlashsang ham bo'lgil ehtiyot,

Dushman qulog'iga etishmasin, boq.

Devor ichra har ne desang hushyor bo'l,

Devor orqasida bo'lmasin quloq.

Do'stlik borasidagi fikrlarni bayon etish bilan birga dushmanning kirdikorlarini ham ochib berishga urinadi. Muslihiddin Sa'diy dushmanni kishilarning turmush tarzi, o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlari va uning mazmunidan boxabar bo'lib, so'ngra ularga ziyon etkazadigan, zarba beradigan kimsa qiyofasida tasvirlaydi. Dushmanning uddaburonligi shundaki, u turli yo'llar bilan insonlarni ishonchini qozona oldi. Shu bois mutafakkir odamning fe'l-atvori, xarakterini yaxshi bilmay turib, uni o'ziga yaqin olishi xato ekanligini aytadi. Bu o'rinda dushmanning makr-hiylalariga uchmaslik, undan qutilish yo'llarini ham ko'rsatib o'tadi. Chunonchi, zaif dushman itoat izhor etsa, buni zo'r dushmanga aylanib olish maqsadida qiladi. "Do'stlarning do'stligiga e'timod yo'q, - deydilar, - bas, shunday ekan, dushmanni xushomad qilishining qanday e'tibori bor?! Zaif

dushmani nazar-pisand qilmagan kishi ozroq olovini beparvolik bilan tashlab ketgan odamga o'xshaydi. Dushman nasihatini qabul etmak xato bo'lsa-da, lekin nasihatiga quloq solmoq ravodir, chunki uning aytganining aksini qilsang, to'g'ri ish tutgan bo'lasan!" g'uyida keltirilgan to'rtlik mazkur fikrlarning mohiyatini yanada yorqinroq ifoda etadi:

**Dushmanning ko'rsatgan yo'liga yurma,
So'ng pushaymon bo'lib, tizzangga urma.
Senga o'qdek to'g'ri yo'l ko'rsatgan on,
Sen undan burilib, yurgil chap tomon.**

O'zini do'st etib ko'rsatgan ayrim kimsalar dushman tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan ishni bajarishi mumkin. Zero, alloma ta'kidlab o'tganidek, «Barcha hiylalari barbod bo'lgan dushman o'zini do'st qilib ko'rsatishga chalishadi, do'st bo'lib olgach, shunday ishlar qiladiki, buni hech qanday dushman ham qila olmaydi .

Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" asarida inson kamolotining asosiy omillari biri jismoniy etuklik ekanligiga alohida urg'u beradi. Mardlik, chaqqonlik jasurlik, kuchlilik turli zamon va makonlarda ham ulug'lanib kelinadigan hamda har bir yigit kishi o'zida mujassam eta olishi lozim sanalgan asosiy xislatlardir. Bu xislatlar inson gavdasiga emas, uni egallab olishiga bog'liqdir. Mazkur sifatarning aks etishi yigitning gavda tuzilishi, baquvvatligida namoyon bo'lishi shart emas, balki uning kuchli iroda va mustahkam xarakter egasi bo'lishida namoyon etishi zarur. "Guliston" asarida jasurlik, epchillik, chaqqonlik, mardlik xislatlari ulug'lanadigan hikoyatlar talaygina. Ana shunday hikoyatlardan birining mazmunida ustozning o'z shogirdiga kurash sirlarini o'rgatishi hikoya qilinadi: "Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat qozondi, u uch yuz oltmish hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib, kurashar edi. Shogirdlaridan biriga uch yuz ellik to'qqiz hiylani o'rgatdi. Ammo bir hiylani o'rgatishni har turli bahonalar bilan paysalga solib yurdi.

Xulosai kalom, shogird qudrat va san'tda kamolotga erishdi. Bir kuni u podshoh huzurida dedi: "Ustozimning faqat birgina afzalligi bor, u ham bo'lsa, uning yoshi

ulug'ligi va menga tarbiya berganligidir, yo'qsa, kuchda ham, mahoratda ham men undan qolishmayman!

Bu so'z podshoga yoqmadi. Ustozu shogirdning kurash tushmoqlarini buyurdi. Katta maydonni hozirladilar. Shogird bamisoli mast fildek jo'shib, maydonga kirdi, go'yo qarshisida temir tog' bo'lsa uni emirib tashlagudek edi. Ustoz shogirdi kuchda ortiq ekanini angladi. U pinhon tutib yurgan mazkur nodir hiylasini ishga solib kurasha boshladi. Shogird ustozning hamlasini daf etishdan ojiz qoldi. Ustoz harifini ikki qo'li bilan boshi uzra ko'tarib, erga urdi. Xaloyiqning hoy-huv sadolari ko'kka o'rladi.

Podshoh ustozga sarpo buyurdi, shogirdga esa ta'na-malomatlar qilib, dedi: O'z ustozingga bevafoqlik qilib, uni mag'lub etaman deb maqtanding, lekin aytgan so'zingning uddasidan chiqa olmading?! Shogird dedi: Ey podshohi olam, ustozim kuch bilan mendan ustun kelgani yo'q, balki ko'p vaqtdan beri menga o'rgatmay yashirib yurgan bir hiylasi tufayli meni mag'lub eta oldi."

Ustoz dedi: Mazkur hiylani ana shunday bir kun uchun saqlab qo'yib edim, chunki ulamolar: do'stga bir kuni agar u dushmanlik qilsa, o'zingni mag'lub eta olajak kuch bermagil, deganlar. Shogirdlardan jafo ko'rgan ustoz nima deganini eshitmaganmisan?

Yoki vafo yo'qdir olamda

Yo kishi qo'llamas uni bu zamon

O'zimdanda o'q otish o'rgangan kishi

Bukun ko'kragimni qilmoqchi nishon».

Bu hikoyatdan quyidagi uch hikmatni anglash mumkin:

a) har bir inson o'zini jismoniy jihatdan chiniqtira olish mahoratiga ega bo'lish zarur;

b) qiyin daqiqalarda mazkur mahoratidan foydalana olishi imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin;

v) do'st deb ishonib hamma vaqt ham unga o'z sirlarini ochavermaslik

Biroq bayon etilgan holatlarning har bir ishda ham inson vaziyatni aniq baholay olishi, o'zini himoya eta olish mahorati, shuningdek, hayotda to'g'ri yo'l topa olish

qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Yuqorida keltirilgan hikoyat mazmuni orqali ana shu g'oya ilgari suriladi.

Muslihiddin Sa'diy jismoniy etuklik axloqiy kamolot bilan uyg'un holatda mavjud bo'lishiga alohida urg'u beradi. Darhaqiqat, jismoniy etuklikning muhim belgisi bo'lgan kuchli iroda hamda mustahkam xarakter yordamida jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlarga amal qilishga erishilsa, ayni vaqtda axloqiy sifatlarni o'zida aks ettira olish, xususan, mehnatga muhabbat qo'yish va uni tashkil etish iroda va xarakterni tarbiyalaydi. «Guliston» asarida bu boradagi fikrlar yoritilar ekan, quyidagi hikoyat keltiriladi:

“Bosh hamda oyoq yalang bir piyoda musofir hijoz karvoni bilan Kufadan kelib bizga qo'shildi. Uning hech narsasi yo'q edi, lekin viqor bilan qadam tashlab derdi:

Xachir minib bormayman, na tuyada yukim bor,

Na sultonning quliman, na qullarga shahriyor.

Dunyoda hech qayg'um yo'q, dilim qo'rquvdan ozod,

Xotirjamman bus-butun, ko'nglim esa doim shod.

Tuya mingan boylardan biri unga dedi:

“Ey darvesh, qayoqqa borasan, yo'l og'ir, yo'l mashaqqatiga bardosh bera olmay o'lib ketasan, qayt orqangga”. Darvesh uning gapiga quloq solmay, yo'lida davom etaverdi. Karvonimiz Naxlan Mahmudga etganidan boyagi tuya mingan boy olamdan o'tdi. Darvesh uning o'ligi tepasiga kelib dedi: “Men piyoda yurish mashaqqatidan o'lmadimu, sen nor tuyada yurish rohatidan o'lding!”

Bir talay arg'umoq yo'llarda qoldi,

Manzilga oqsagan eshak etoldi.

Yarali yigitlar sog'ayib ketdi,

Ne-ne sog'lomlarni qora er yutdi».

Mazkur hikoyatda jismoniy jihatdan chiniqishning inson salomatligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilishi bilan birga, insonning o'z kuchi va irodasiga bo'lgan ishonchi, ko'ngil xotirijamligi bilan yashash zavqi uning har qanday mashaqqatlarga bardosh bera olishini ta'minlovchi omil ekanligi ko'rsatib beriladi.

Muslihiddin Sa'diyning ta'lim va tarbiya masalalari borasidagi qarashlari hayotiy hamda amaliy ekanligi bilan e'tiborga sazovor. Xususan, alloma ta'lim olish yoki yoshlar tarbiyasini tashkil etishning u yoki bu jihatlari xususida so'z yuritir ekan, ayni o'rinda bu borada yo'lga qo'yiluvchi faoliyatning uslubini ham bayon etadi. Xususan:

Xushxulq kishiga qattiq gapirma,
Sulh istab kelsa, jangga chaqirma,
Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo,
Dilozor yarasiga qo'ymagil malham.
Aylama rahm-shafqat ilon-chayonga,
Bundan ozor topar farzandi odam.

Yoki

Bo'lsin qattiqligu yumshoqlik baham,
Tabib ham kesaru, ham qo'yar malham.
Dono kishi qattiq bo'lmaydi doim,
g'adri ketar bo'lsa hamon muloyim.
Kibru dimog'dorlik qilmas ixtiyor,
Ammo o'zini ham hech aylamas xor.
Cho'pon der otasiga: «Ey xiradmand,
Degil ta'limima pirona bir pand».
Dedikim: «Xushfe'llik qilma chandon,
Bo'rilar bo'lmasinlar tez dandon».

Mazkur misralar mazmunida Muslihiddin Sa'diyning ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish jarayonida muayyan me'yorlarga tayanib ish ko'rish, bolalarga nisbatan qattiqqo'l yoki yumshoqfe'lli bo'lishda ham mo'tadillikka erishish maqsadga muvofiq degan g'oyaning ilgari surayotganligi anglanadi. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda badhulq va yovuz kimsalarga nisbatan qattiqqo'l, aksincha, xushxulq va yaxshi fe'lli insonlarga nisbatan xushmuomala bo'lishni tavsiya etadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglanadiki, Muslihiddin Sa'diy ham boshqa allomalar kabi insonni tabiat, Olloh yaratgan eng oliy mavjudot deya e'tirof etadi. Biroq insonning oliy mavjudotligi qachonki uning yuksak darajadagi insoniy fazilatlarni o'zida namoyon eta olgandagina tan olinishiga urg'u beradi. Muta'fakkirning fikrlariga ko'ra, etuk, komil inson o'zida quyidagi xislatlarni aks ettira olishi maqsadga muvofiq:

Qatra odam suratiga kiradi butkul,
Qirq kun ona qornida topsa oromin.
Agar qirq yoshlikning bo'lmasa aqli,
Unga berib bo'lmas insonlik nomin.
Javonmardlik karamdir, odamiy
Dema odam agar bir surati bor.
hunar lozim, naqshni chizsa bo'lg'ay,
Devorlarga bo'yoqlar pushti, zangor.
Agar bo'lmas ekan fazlu hunar hech,
Bilib bo'lmas odammi, naqshi devor.
Bisot, mol qo'lga kirgizmoq hunarmas,
Qo'lingdan kelsa bir dil ovla, ey, yor.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa'diy o'zining "Guliston" asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o'rganishning o'ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o'rganishning o'ziga jihatlari, shuningdek, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so'z yuritadi. Allomaning fikricha, quyidagi fazilatlarni o'z qiyofasida mujassam eta olgan insongina haqiqiy ma'noda komil, etuk inson sanaladi: bilimli, mehnatsevar, kamtar, oliyjanob, himatli, saxovatli, saxiy, shijoatli, g'ayratli, hat'iyatli, mard, jasur, jismonan kuchli, to'g'riso'z, bergan va'dasiga vafodor, adolatli, do'stga sodiq, o'z kuchi va mehnatiga tayanib ish ko'ruvchi va hokazolar. Muta'fakkir tomonidan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlab yaratilgan asarlar hamda ularning

mazmunida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga munosib o'ringa egadir.

Muslihiddin Sa'diy tomonidan asoslangan barkamol insonni shakllantirish tizimi o'zida quyidagilarni aks ettiradi: yuksak darajada nazariy va amaliy bilimlarni egallash, til va so'z odobiga ega bo'lish, shuningdek, o'zida halollik, rostgo'ylik, saxiylik, kamtarlik, qanoatlilik, samimiylilik kabi xislatlarni namoyon eta olish, vafodor do'st bo'lish. Allomaning nuqtai nazariga ko'ra o'zgalar sirini saqlay olish, kamgap bo'lish hamda har bir so'zni o'z o'rnida va lozim topilgandagina so'zlash, yuqori mansab yoki mavqega ega bo'lganda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsata olish kishining obro'siga obro' qo'shuvchi sifatlar bo'libgina qolmay, ayni vaqtda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy holatlarning oldini oladi. Insonda baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, zolimlik, jaolat, tanballik, shoshqaloqlik, bilimsizlik, sabrsizlik, ko'p gapirish va hokazo kabi xislatlarning mavjudligi esa kishilar o'rtasida adovat, o'zaro urush-janjallarning kelib chiqishida asosiy omil bo'lib xizmat qilishini Sa'diy o'z asarlarida alohida qayd etib o'tadi.

Mutafakkirning asarlari o'ziga xos pedagogik qiymatga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur asarda ilgari surilgan g'oyalar kishilar, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy-axloqiy kamolotga yo'llaydi, ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatlarni ahillik, saxovat hamda hamjihatlik asosida bartaraf etib, adolat o'rnatishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992. - 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T., 1997 y. 21 bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T., 1997 y. 17 bet.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari

1. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi Qarori G'G' Zarafshon gazetasi. – 31.05.2012. – №66.

III. O'zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T., "O'zbekiston", 1992.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T., "O'zbekiston", 1993.
4. Karimov I.A. Istiqlool va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994y.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., "O'zbekiston", 2000.
7. Prezident Islom Karimov asarlari bibliografiyasi. Tuzuvchilar: 8.N.Jo'raev, N.Abduazizova va boshq.G' T., "Sharq", 2001
8. Prezident I.Karimovning "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida nutqi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 2014-yil 17-may soni.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Zunnunov A.va boshq. Pedagogika tarixi. T., "Sharq", 2000.
2. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., "Sharq", 1997.

3. Boboev H, G'ofurov Z, Islomov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. Toshkent:Yangi asr avlodi, 2001.
4. Baratov N, Aliqulov X. O'rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. Toshkent: O'zbekiston, 1974.
5. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. Toshkent, 1994.
6. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Odob bo'stoni – axloq gulistoni. Toshkent, 1994.
8. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchi: O.Hasanboeva)T., "O'qituvchi", 1990.
9. Pedagogika tarixi. 1-qism. (Tuzuvchilar: S.Nishonova, B.Hasanova) T., 2002.
10. Pedagogika tarixi. 2-qism. (Tuzuvchilar: S.Nishonova, B.Hasanova) T., 2002.
11. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi G'G'Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun qo'll. - Toshkent, O'qituvchi, 1996.
12. Shomuhamedov Shoislom. Fors-tojik adabiyoti klassiklari (Sharq adabiyoti klassiklari haqida suhbatlar). - Toshkent, O'zadabiynashr, 1963.
13. Mushrifiddin Saadi. Gulistan (Podgotovka teksta, vstupitelnaya statya i primechaniya Rustama Alieva). - M.: 2008,
14. Sa'diy, Muslihiddin. Guliston (Tarjimonlar G'.G'ulom, Sh.Shomuhamedov (nazm) va R.Komilov (nasr). Muharrir Vasfiy. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.

V. Internet saytlari

1. [http: www.edu.uz](http://www.edu.uz) (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi)
2. [http: www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i)
3. [http: www.markaz.uz](http://www.markaz.uz) (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi)
4. [http: www.inetlibrary.com](http://www.inetlibrary.com) (Internet kutubxona)

Ilova

«GULISTON»DAN

Fitna yuzli rost so'zdan bo'l yiroq,
Maslahatli yolg'on andan yaxshiroq.
Oqil ul so'zni o'rinda so'zlagay,
ham javobini munosib ko'zlagay.
Kim muxolif bo'lsa sulton so'zina,
Kelturur ul ko'b balolar o'zina.

Orif bilan o'lturmoq johilga erur zindon,
Johil bila o'lturmoq orifga jahannamdur.

Yo'qtur jahon ichra manga aslo bu damdin yaxshi dam,
Kim neku badning fikridin ko'nglumda yo'q bir zarra g'am.

Vafosiz dunyoga dil berma zinhor.
hech kimga do'st bo'lmas charxi kajraftor.
O'ladi shubhasiz yaxshi ham yomon,
Baxtlidir yaxshi nom qoldirgan inson.

O'ylab ko'r, og'zingdan chiqarkan nafas,
Toki demasinlar: «Qil gapingni bas!»
Til bilan hayvondan ajralur inson,

Bema'ni gapirgan hayvondan yomon.

Aqlning ko'zi ham tama'dan bog'liq,
Tama'dan ilingay domga qush, baliq.
Zulm ko'rsang, kiygil chidam etigin,
Yumshoqlik yopadi urish eshigin.

Yumshoq muomala, shirinso'z odam
Bir qil bilan tortib ketar filni ham.
Yumshoq bo'lgil, yumshoq ipakni hatto
O'tkir qilichlar ham kesolmas aslo.



Russkiy: Persidskiy poet i ucheno'y Muslix ad-Din Saadi Shirazi (ok. 1213-1292 gg.) izvesten prejde vsego kak avtor "Gulistan" ("Rozovo'y sad"), odnogo iz velichayshix shedevrov persidskoy literaturo', sozdannogo im v 1259 godu. Eta rabota nosit didakticheskiy i eticheskiy xarakter, ona izvestna shirokomu krugu chitateley v nastoyahee vremya, koto'ro'e chitayut ee kak v originale na persidskom yazo'ke, tak i v perevodax na mnogie yazo'ki mira. Dannaya rukopisnaya kopiya vo'polnena shriftom talik dvumya razno'mi avtorami, v ney soderjatsya mnogochislenno'e poyasneniya i primechaniya na polyax i v samom tekste. Rukopis datirovana 1585 godom (993 godom xidjro'). Dannaya rukopis otnositsya k Kollektzii islamskix rukopisey Basagicha, xrayaheysya v Universitete Bratislavo', Slovakiya, vkluychennoy v spisok natsionalno'x proektov

programmo' YuNESKO "Pamyat mira" v 1997 godu. Safvet bey Basagich (1870-1934 gg.) bo'l bosniyskim ucheno'm, poetom, jurnalistom i direktorom muzeya, kodoro'y sobral kolleksiya iz 284 rukopisno'x tomov i 365 pechatno'x tomov, v kotoroy otryaetsya razvitie islamskoy tsivilizatsii s momenta ee zarojdeniya i vplot do nachala XX veka. Dannaya rukopis xranitsya pod nomerom 586 v kolleksii Yozefa Blaskovicha Arabské, turecké a perzské rukopisy Univerzitetnej knižnice v Bratislave(Arabskie, turetskie i persidskie rukopisi v biblioteke Universiteta Bratislavo').

English: The Persian poet and scholar Muṣliḥ ud-Dīn Sadī Shīrāzī (circa 1213-1292) is known primarily as the author of Gulistan (The rose garden), one of the great masterpieces of Persian literature, which he completed in 1259. The work has a didactic and ethical character, and is still widely read, in the original Persian and in translations in many languages. This manuscript copy is written in the ta'liq script in two different hands, and contains numerous explanations and remarks in the margins and in the text. The manuscript is dated 1585 (993 A.H.). The manuscript is from the Bašagić Collection of Islamic Manuscripts in the University Library of Bratislava, Slovakia, which was inscribed on the UNESCO Memory of the World register in 1997. Safvet beg Bašagić (1870-1934) was a Bosnian scholar, poet, journalist, and museum director who assembled a collection of 284 manuscript volumes and 365 print volumes that reflect the development of Islamic civilization from its inception to the early 20th century. The manuscript is item 586 in Jozef Blaškovič, Arabské, turecké a perzské rukopisy Univerzitetnej knižnice v Bratislave (Arab, Turkish, and Persian manuscripts in the University Library, Bratislava).

العربية: إن أفضل ما يُعرف به الشاعر والعالم الفارسي مصلح الدين سعدي الشيرازي (نحو ١٢١٣-١٢٩٢) هو مؤلفه كلستان (روضة الورد) ، أحد أعظم روائع الأدب الفارسي، التي أكملها في عام ١٢٥٩. ولهذا العمل طابع تعليمي وأخلاقي، ولا يزال يُقرأ على نطاق واسع، بالنص الفارسي الأصلي والمترجم في العديد من اللغات. وقد كُتبت هذه النسخة المخطوطة بنمط خط التعليق بخطين مختلفين، وتحتوي على العديد من التفسيرات والملاحظات في الهوامش وفي النص. والمخطوطة مؤرخة في ١٥٨٥ (٩٩٣ هـ). وقد وردت هذه المخطوطة في مجموعة باساجيك من المخطوطات الإسلامية الموجودة في المكتبة الجامعية في براتيسلافا في سلوفاكيا، والتي أدرجتها اليونسكو في سجل ذاكرة العالم للتراث الوثائقي في عام ١٩٩٧. وكان صفوت بك باساجيك (١٨٧٠-١٩٣٤) عالمًا، وشاعرًا، وصحفيًا بوسنيًا، ومدير المتحف الذي جمع ٢٨٤ مجلدا من المخطوطات و ٣٦٥ مجلدا مطبوعا تعكس تطور الحضارة الإسلامية منذ مطلعها وحتى أوائل القرن العشرين. وهذه المخطوطة هي البند ٥٨٦ في مؤلف جوزيف بلاسكوفيك بعنوان أرابيسك، توريك أ بيرزسك روكوبسي ينيفيرزتي كنز نيس ف براتسلافي (المخطوطات العربية، والتركية، والفارسية في المكتبة الجامعية في براتيسلافا).